

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**«Himoyaga ruxsat etildi»
Tabiiy fanlar fakulteti dekani,
g.f.n., dotsent _____
A.A.Nazarov
«__» _____ 2018 y.**

5140600-geografiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi
bitiruvchisi

Madraximova Salomat Zokirjon qizining

**“Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish va
kartalashtirish”**

mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**«Himoyaga tavsiya etildi»
Geografiya kafedrasi mudiri
_____ g.f.n., dots. X.Mirzaaxmedov
«__» _____ 2018 y.**

**BMI rahbari: g.f.n., dots.
X.Mirzaaxmedov**

Namangan – 2018

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
1-BOB. XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINI KARTALASHTIRISH- NING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	
1.1 O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya va xizmat ko'rsatish sohalarini kartalashtirish	
1.2 Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini geografik o'rganishda kartalashtirishning ahamiyati	
1.3 Aholiga xizmat ko'rsatish kartalarini tuzishda zamonaviy usullarni qo'llash	
2-BOB. NAMANGAN VILOYATIDA IJTIMOIIY SOHALARNI RIVOJLANISHI VA UNI KARTALASHTIRISH	
2.1 Aholiga xizmat ko'rsatish sohalariga oid jrayonlarni kartalashtirish imkoniyatlari	
2.2 Namangan viloyat ijtimoiy sohalarni rivojlanish xususiyatlari	
2.3 Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari kartalarining takomilashtirish masalalari	
Xulosa.....	
Ilovalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasi sub'ektlari jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Ushbu sohaning rivojlanishi mamlakat aholisi boyishiga, iqtisodiyot rivojlanishiga, iste'mol bozori to'yinishiga, davlat byudjeti tushumlari ko'payishiga, ishsizlik kamayishiga olib keladi.

Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash hamda modernizatsiyalash sharoitida mamlakat va uning hududiy tuzilmalarida kechayotgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy jihatdan o'rganib borish asosiy vazifalardan sanaladi. Mazkur masalalarni o'ragnish va tahlil qilib borish ilm-fan sohalarining oldiga ham katta ma'suliyatlarni yuklaydi. Xususan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga oid tadqiqotlar doirasida hududiy ijtimoiy va iqtisodiy geografik voqea hodisalarni kartalashtirish, bu boradagi vaziyatlarni ilmiy asosda ko'rsatib berish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. SHuningdek, malakatda olib borilayotgan barcha sohaviy, tarmoq va mintaqaviy siyosatlarning provardida aholining turmush farovvonligini oshirish, yashasha sharoitlarini yaxshilash turadi. Zero, jamiyatdagi har qanday amalga oshiriladigan faoliyatlarning zaminida inson manfaatlari yotadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad — inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda"¹. Ana shunday aholi bilan bog'liq masalalarning ustivorligidan kelib chiqib aholiga xizmat ko'rsatish soxalariga oid jarayonlarni o'rganish va tahlil etish geografiya sohasida ham muxim o'rganishlarni taqozo etadi. Bunda aholga xizmat ko'rsatish soxalarii bilan bog'liq tadqiqotlarni tashkil etish va ularni joylashuvi va rivojlanishi bilan bog'liq hududiy tavsilotlarni kartalashtirish amaliy ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasi. www.gazeta.uz/oz/2016/12/07/speech/

Shu nuqtai nazardan aholiga xizmat ko'rsatish sohalari joylashuvi va ularning hozirgi holatini ko'rgazmali tarzda zamonaviy geoaxborot tizimlaridan foydalanib kartografik metodlar asosida yangi kartalarni yaratish mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishining masad va vazifalari. Ishning maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash sharoitida, Namangan viloyatida ijtimoiy soxalarni hududiy xususiyatlarini tahlil qilish va shu asosda aholiga xizmat ko'rsatish sohalari faoliyatiga oid mavzuli karta yaratishdan iborat.

Ushbu bosh maqsadga erishish uchun malakaviy ishda quyidagi vazifalar belgilandi va o'z yechimini topdi:

- ✓ O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya va xizmat ko'rsatish sohalarini kartalashtirish maslalarini o'rganish;
- ✓ aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini geografik o'rganishda kartalashtirishning ahamiyatini ochib berish;
- ✓ aholiga xizmat ko'rsatish kartalarini tuzishda zamonaviy usullarni qo'llash;
- ✓ aholiga xizmat ko'rsatish sohalariga oid jrayonlarni kartalashtirish imkoniyatlarini ochib berish;
- ✓ Namangan viloyat ijtimoiy sohalarni rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish asosida xizmat ko'rsatish joylashuviga oid mavzuli karta ishlab chiqish va x.k.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti. Mazkur ishning tadqiqot **ob'ekti** sifatida Namangan viloyati aholiga xizmat ko'rsatish soxalari va ularning faoliyati olingan. Ana shundan kelib chiqqan holda Namangan viloyatida aholiga xizmat ko'rsatish soxalari joylashuvini zamonaviy GAT texnologiyalaridan foydalanib mavzuli kartasi yaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Mazkur ish kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Uning umumiy matn qismi 64 betdan iborat bo'lib, ishda **4 ta jadval, 18 ta rasm** berilgan. Adabiyotlar ro'yxati 36 nomdagi manbalarni o'z ichiga oladi.

BMIning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, va amaliy jihatlarini asoslab berilgan.

Birinchi bob “**Xizmat ko’rsatish sohalari**ni **kartalashtirishning nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlanadi. Unda O`zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy kartografiyani rivojlanish masalalari va aholiga xizmat ko’rsatish soxalarini kartalashtirish ahamiyati hamda mavzuli kartalar tuzishda zamonaviy usullarni qo’llash kabi masalalar ko’rib chiqilgan.

Ikkinchi bob – “**Namangan viloyatida ijtimoiy sohalarni rivojlanishi va uni kartalashtirish**” masalalariga bag’ishlangan bo’lib, unda Namangan viloyatida ijtimoiy soxalarni rivojlanish xususiyatlari masalalari tahlil qilingan va mintaqada xizmat ko’rsatish soxasini kartalashtirilgan.

Ishning **xulosa** qismida tadqiqot natijalari umumlashtirilib tavsiyalar va takliflar keltirilgan.

1-BOB. XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINI KARTALASHTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya va xizmat ko'rsatish sohalarini kartalashtirish

Jamiyat rivojlanishi va mamlakatlarning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot darajalarini ortib borishi barcha sohalarda rivojlanish va tarkibiy o'zgarishlarni taqozo etadi. Mazkur jarayon ilm va fan kabi ijtimoiy jabhalarga ham aloqador bo'lib uning barcha tarmoqlarida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Kartografiya sohasining rivojlanishi va kengaytirilishida fanga taraqqiyot omillarini jalb etilishi eng avvalo uning mahsulotlarida turli avlod kartalari va zamondagi hamda makondagi o'zgarishlarni ifodalaovchi kartografik asarlarning sifat va miqdor jihatidan o'zgarishiga bog'liq. Bugungi kunda kartalar mazmunining kengayishi va ulardan foydalanish darajalarining chuqurlashtirilishida ularning ilmiy va amaliy yo'nalishida birmuncha yangilanishlar amalga oshirilgan bo'lsada hal qilinayotgan vazifalarning turiga qarab turli sohalarni qamrab oluvchi kartalarga talb yuqoriligicha qolmoqda.

Zero, mamlakatimizda o'tgan asrning 90 yillarining o'rtalariga qadar turli sohalarga uchun nashr etilgan kartalar mazmuni va sifatiga ko'ra hozirgi kun talabiga javob bermas edi. Ularda respublika iqtisodiyotidagi o'zgarishlar va ularning o'sha vaqtdagi holatini ifodalovchi miqdor ko'rsatkichlari amalda kam keltirilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng 1994-yilda T.Mirzaliyev tomonidan o'rta va oliy maktablar uchun yangi "Umumiqtisodiy karta" (1:1 000 000 masshtabda) yaratildi. Unda muallif taklif etgan yangi uslubiy yondashuv qo'llanilgan². Shunday qilib, kartada umumiy iqtisodiy geografik jarayonlar va iqtisodiy geografik vaziyat aks ettirilgan. Xususan, xizmat ko'rsatish kartalarida ham xizmat ko'rsatish tizimini asosiy ko'rsatkichlari nisbatan sayozroq

² Mirzaliyev T. Va bosq. Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya. – T.: "Yangi asr avlodi", 2009. 22-bet.

obrazli-belgi modellar orqali ko'rsatish bilan cheklanilgan. Mazkur holatga albatta 90 yillar boshiga qadar xukm surgan siyosiy va iqtisodiy boshqaruvdagi vaziyatlar ta'sir ko'rsatgan. Binobarin bu davrda aholiga xizmat ko'rsatish sohalari ma'lum darajada rivojlantirilgan bo'lsada buning negizida iqtisodiy manfaatlar yuqori bo'lib ijtimoiy hususiyatlar faqat yuzaki tarzda e'tiborga olingan. ushbu vaziyat xizmat ko'rsatish kartalarinig sifatiga va geografik qonuniyatlarga aloqador holda tasvirlvsh qonuniyatlarini chetlab o'tishni keltirib chiqargan. Kartalashtirishga yaangi uslubiy yondashuv va bu asosda tayyorlangan kartadalarda geografik qonuniyatlar va ularning boshqa sohalar bilan aloqadorligi kabilar asosan mustaqillik yillarida shakllana boshladi. Sohaga oid ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha O'zbekiston kartografiyasida ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni kartalashtirishning jadal rivojlanishi yoki taraqqiyot bosqichi o'tgan asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. Bunga O'zbekistonni 2 tomli atlası misol qilib ko'rsatiladi. Ushbu atlasning birinchi qismi 1982-yilda, ikkinchi qismi esa 1985-yilda chop etilgan bo'lib unda sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va xizmat ko'rsatish sohasiga doir ijtimoiy-iqtisodiy kartalar o'z aksini topgan. Ushbu atlasni chop etilishi bilan respublika ijtimoiy-iqtisodiy kartografiyasida birmuncha rivojlanishi sezilarli bo'lgan. Atlasda alohida ijtimoiy-iqtisodiy, xususan paxtachilik, irrigatsiya va sug'orish, qorako'lchilik hamda boshqa kartalarni berilishi bilan respublikaning o'ziga xos tabiiy va xo'jalik xususiyatlari o'z aksini topdi. Atlasda deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy kartalarda tasvirlangan voqealar dinamikasi ham ko'rsatilgan. Atlasning umumiqtisodiy kartasi jami ijtimoiy-iqtisodiy sohalar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtiruvchi sintetik modeldir. Ushbu kartalar mazmunining kengligi, ularni keng qirraligi hamda ilmiy va amaliy maqsadlarda ulardan foydalanish imkoniyatlari katta ekanligini ko'rsatib bergan. Atlas kartalari ilmiy, shu jumladan geografik tadqiqotlarni tipologik va sintetik ko'rsatkichlari xo'jalik tarmoqlarini, aholi hamda unga xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni va ularning faoliyatlarini tahlil etishni, ijtimoiy-iqtisodiy hamda demografik jarayonlarni rivojlanish sabablarini o'rganishga va ular haqida bashorat

qilishni ta'minladi. Umumiy iqtisodiy karta xo'jaliklarning asosiy tarmoqlarini yaxlit tavsifini tayyorlashga, tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ifodalashga, hududlarni iqtisodiy taraqqiyotidagi katta farqlarni aniqlashga imkon yaratadi.

Respublikada aholi va unga xizmat ko'rsatishni kartografiyalash jarayoni O'zbekiston ilmiy-malumotnoma atlasini tayyorlash bilan bog'liq holda rivojlana boshlashiga ushbu atlasda berilgan 10dan ortiq ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan kartalarni misol qilish mumkin. Ushbu kartalar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni aks ettiruvchi ilmiy asarlar bo'lishi bilan birga ilmiy tadqiqotlar vositasi va rejalashtirish va bashorat qilishning muhim ilmiy amaliy qo'llanmasi vazifasini ham bajaragan.

Aholi va unga xizmat ko'rsatishni majmualari kartografiyalash ularga xos ko'rsatkichlarni ijtimoiy – iqtisodiy va tabiiy shart-sharoitlar bilan murakkab o'zaro aloqalarga ega ekanligi tufayli alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ilmiy ma'lumotnoma atlasining tayyorlanishi mavzuli kartografyani ushbu tarmog'ining rivojlanishini tezlashtiradi.

Aholi va unga xizmat ko'rsatishga xos statistik va ijtimoiy – iqtisodiy xususiatlarini to'liq tasvirlash uchun respublika xizmat ko'rsatishning hamma sohasini o'z ichiga oladigan tizimli Aholiga xizmat ko'rsatish atlasini zarur. Shunday atlas uchun tasvirlar qamrovi va haqqoniyligini oshirishni taqozo etadi.

Tizimli kartalashtirishda voqea va hodisalarni tasvirlashda va tizimli ravishda kartalashtirishni bajarishda tizimli yondoshish printsiplaridan foydalaniladi. Tizimli kartalashtirish ijtimoiy-iqtisodiy sohada juda faol hisoblanadi, chunki bu soha ko'rsatkichlari tizimlilik, tarkibi, tashkil etilishi, faoliyati va dinamikasining juda murakkabligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiyada tizimli yondoshish xalq xo'jaligi kompleksining mahalliy, regional va umumdavlat miqyosida rivojlanishi va faoliyatining uzviy bog'liqligi bilan aniqlanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimli kartalashtirish kompleks va mavzuli atlaslar va bir-biriga bog'langan seriyali kartalar orqali amalga oshiriladi.

Butun mamlakatni va uning mintaqalarini tizimli kartalashtirish vazifasi sobiq ittifoq davrida ikkinchi jahon urushidan keyin ilgari surilgan bo'lsada bunday ijtimoiy-iqtisodiy kartalashtirish vazifasi ittifoq parchalangunga qadar ham to'liq yechilmagan. Bu masala mintaqalar va sobiq ittifoq miqyosida atlaslar va seriyali kartalar tuzish orqali yechila boshlangan, dastlab mintaqalar bo'yicha, so'ngra tabiiy hududiy majmualar doirasida amalga oshirishga harakat qilingan.

Mintaqalar masshtabida kartalashtirish ishlari natijasi ilmiy-ma'lumotnomali atlaslarda yoki seriyali kartalarda keltirilgan. Tizimli yondoshish hodisalarning ko'rsatkichlarini to'liq va maqsadli kartalashtirishni talib qiladi. Ilmiy-ma'lumotnomali atlaslar va seriyali kartalar tuzishda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barcha geografik xususiyatlari, jumladan xo'jalik yuritish faoliyati, aholi tarqalishi, xizmat ko'rsatish sohalari mukammal o'rganilishini talab qiladi. Bunday talabni bajarish atlaslar dasturini yaratishdan boshlanadi, so'ngra regionlarni o'rganishda, kartalashtirishning boshqa bosqichlarida qo'yilgan talablarni bajarish borasida, masalan, atlas kartalarining safiga ba'zi kartalar qo'shilishi yoki olib tashlanishi bilan. Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning tizimi to'liqligini, ularning hududiy bog'liqligini o'rganish, hududiy ishlab chiqarish komplekslarini modellashtirish natijasida amalga oshiriladi. Tizimli ijtimoiy-iqtisodiy kartalashtirishda asosiy muammolardan biri - bu kartalarning bir-biri bilan muvofiqligini ta'minlashdir. Bunga aholi, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalari ko'rsatkichlarini bog'lab tasvirlash orqali erishiladi. Mehnatni ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalari orasidagi bog'liqlik ifodalaydi. Ishlab chiqarish sohalari va yuqori tashkilotlar orasidagi aloqalar ham kartalarni tuzishda e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy kartalarni bir-biri bilan muvofiqlashda ob'ektlarning joylashgan o'рни va ularning ko'rsatkichlari hamda kartalarda tasvirlash metodlari nazarda tutiladi. Bunday kartalashtirish birliklarini tanlash, vaqtni belgilash, masshtablar tizimini va tasvirlash usullarini aniqlash, tipologik va

sintetik kartalarni yaratish, ularga yaxlit metodika tanlash, kartalarni ishlab chiqish uchun ratsional ketma-ketlikni belgilash bilan amalga oshiriladi.

Kartalarni tuzish ketma-ketligi hududiy tizimlarning joy sharoiti bilan bog'liqligi va tasvirlanayotgan modeliga qarab aniqlanadi. Regional atlaslar va seriyali kartalar uchun eng birinchi bo'lib adresli kartalar tuziladi. Ular asosida qisqa mazmunli sohalar kartalari yaratiladi. So'ngra, tizimli kartalashtirishning oxirgi bosqichidagi hududiy tizimlar komponentlari va ularning to'liq tizimlilikini ifodalaydigan tipologik va sintetik kartalar tuziladi. Ijtimoiy-iqtisodiy kartalar uchun metod va usullar tanlash kartaning mazmuniga, miqdor va sifat ko'rsatkichlariga, ular orasidagi muvofiqlikga hamda tizimlarning tipologiyasiga bog'liq. Tanlangan shkalalar bosqichlari muvofiqlashda biror bir iqtisodiy rayonga, qishloq xo'jaligi kartalari uchun esa tabiiy to'siqlarga (baryerlarga) to'g'ri kelishi kerak.

Tipologik ko'rsatkichlarni muvofiqlashda korxona, tashkilotlar va rayonlarning ishlab chiqarish bo'yicha butunligi printsipligiga tayaniladi. Fazoviy ko'rsatkichlarni muvofiqlash esa bir-biri bilan bog'langan umumiy markazlarni, hodisalar konturlarni ajratish orqali amalga oshiriladi. Bunday vaqtda turli tasvirlash usullarini va uslublarini qo'llash yaxshi natija bermaydi. Geografik jihatdan aniq hududlarni muvofiqlashda geografik to'siqlardan (rubejlar) foydalaniladi. Masalan, vohalardan cho'l va chala cho'llarga o'tish. Geografik muvofiqlash kartalashtirish birligini va bosqichlarini tanlashda ham namayon bo'ladi.

Muvofiqlashning yana bir sharti – bu kartalarni ma'lum ketma-ketlik bo'yicha tuzishdir. Atlaslarda bunday ishlar yaxshi bajariladi. Ekspeditsion yo'l bilan karta tuzishda bu ishlar ancha mukammal amalga oshiriladi. Tizimli kartalashtirish davlatning barcha hududlari bo'yicha voqea va hodisalarni kompleks, effektiv ravishda tadqiq qilishni, regionlararo taqqoslash va baholash ishlarini bajarishni, davlat miqyosida yirik regionlarni va hududlarni boshqarish va u yerlarda rejalashtirish ishlarini olib borish, umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy

dastrurlarini kartografik asoslashni ta'minlaydi. Ilmiy-ma'lumotnomali va oliy ta'lim kartalarini tuzish uchun mantiqan ketma-ketlikni amalga oshirish eng qiyin masalaradan biridir, chunki bunday kartalarni tuzish uchun ko'plab jamoalar kartalashtirish ishlariga jalb qilinadi, turli xususiyatli va mazmundagi ma'lumotlar yig'iladi. Lekin bu masala karta tuzishga kirishish paytida va kartalarning avtorlik originallarni tuzish jarayonida ma'lum darajada yechilib qo'yiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy kartalashtirishning yanada rivoj topishiga yangi hisoblash texnologiyalarining, matematik va avtomatik metodlarning kartografiyaga kirib kelishi sababchi bo'lmoqda. Lekin bu metodlarning rivojlanishi uchun davlat va regionlar miqyosida tuzilgan ma'lumotlar banki va maqsadli ta'minlangan geografik axborot tizimlari kerak. Davlatni kartografik ta'minlashning boshqa bir bosh yo'nalishidan biri - bu kosmik syomka materiallaridan keng foydalanishdir. Hozirgi kunda olib borilayotgan kadastr ishlarida aerosuratlardan foydalanilmoqda. Bu esa davlatni ijtimoiy-iqtisodiy kartalashtirishni asosiy manbalar bilan ta'minlashi mumkin. Kosmik materiallar, ma'lumotlar banki ijtimoiy-iqtisodiy kartalarni yangilash, hodisalarning rivojlanishini kuzatish, monitoring, baholash va bashoratlash ishlarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Umuman olganda aholiga xizmat ko'rsatish sohasi kartografiyalashning muhim soxalaridan biri sifatida O'zbekistonda keyingi yillarda rivojlanib borayotgan tarmoq hisoblanadi. Xususan, xozirga qadar O'zbekistonda "Kurortlar, sanatoriylar va dam olish uylari", "Maktabgacha ta'lim muassasalari", "Maishiy xizmat ko'rsatish", "Savdo xizmati ko'rsatish", "Umumiy ovqatlanish", "Kommunal xo'jaligi" va boshqa kartalar ham kiritilgan. Biroq ular mayda masshtabli bo'lib, aholiga xizmat ko'rsatishni xamma turlarini qamrab ololmagan.

Xizmat ko'rsatish sohasiga doir to'laqonli kartalarni tayyorlash uchun yangi usullarni qo'llash zarur. Avvalambor, aholiga xizmat ko'rsatuvchi har bir tur uchun kartografiyalash birligi sifatida aholi punktlari bo'yicha qabul qilingan tarmoq kartalarini tayyorlash kerak. Ularda xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning

hududiy joylashganligini, strukturasini, miqdor ko'rsatkichlarini aks ettirishi lozim. Keyinchalik tarmoq kartalari asosida aholini normativ ko'rsatkichlar bo'yicha xizmat ko'rsatishni har bir turi bilan ta'minlanganligini ifodalovchi kartalar tayyorlanmog'i zarur.

Xizmat ko'rsatuvchi sohalar kartalari mavzuini aniqlashda kartografiyalashtirilayotgan hududning geografik xususiyatlari nixoyatda muxim ahamiyat kasb etadi. Chunki, aholi va aholi punktlarining joylashganligi tavsifi bilan xizmat ko'rsatuvchi sohaning asosiy ko'rsatkichlari: katta kichikligi va tarmoqning tashkil etilganligi, xizmat ko'rsatish darajasi va axolining u bilan ta'minlanganligi, xizmat ko'rsatish sohasi shakillarining qamrovi bilan chambarchas bog'langan.

Shunday turdagi kartalarni tuzish uchun kartografiyaning belgilar usuli juda qo'l keladi. U ob'ektlar joylashganligining hudud geografik tavsifi boshqa elementlari bilan o'zaro bog'liq holda aniq tavsifni beradi. Mazkur usul aholi punktlarida xizmat ko'rsatish sohasini hududiy tashkil etilganligi va rivojlanganlik darajasi va holatini xaqqoniy baxolash uchun zarur bo'lgan xilma-xil miqdor va sifat ko'rsatkichlarini tasvirlashda keng imkoniyatlarga egadir. Bu kartalar respublika doirasida aholiga xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganlik darajasini aks ettirishi lozim. Natijada xizmat ko'rsatishni hududlar doirasida notekis taqsimlanganligi, qishloqlarni shaxarlarni orqada qolayotganligi va boshqa shunga o'xshash holatlar aniqlanadi.

Ta'lim sohasi xalq xo'jaligini malakali kadrlar bilan ta'minlashga qaratilgan, fan esa yangi texnologiyalarni yaratish, ilmiy-texnik taraqqiyotni xalq xo'jaligiga joriy etish ishlari bilan shug'ullanadi. Aholiga xizmat ko'rsatish va madaniyat kishilarning ma'naviy va ma'rifiy talablarini qondiradi.

Kartalashtirishning bunday sohalari kompleks regional atlaslarda va mamlakatning boshqa geografik atlaslarida yaxshi rivojlangan. Masalan, Sharqiy Yevropa mamlakatlari atlaslari bu soha ko'rsatkichlarini kartalashtirishda o'zlarining to'liqligi va detallashtirilganligi bilan ajralib turadi. Ta'lim, fan, madaniyat va xizmat

ko'rsatish sohalari kartalashtirishga rejalashtirish, shahar qurilishi va iqtisodiy sohalarni hududiy joylashtirish ham ancha ta'sir etadi. Bunga misol tariqasida Parij va Parij regionini, London va London atrofi atlaslarini keltirish mumkin. Sohalarning alohidaligi kartalari va ularga tegishli atlaslardan tashqari, kompleks rivojlangan markazlarga oid kartalarni ham misol tariqasida keltirish mumkin.

Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kartalashtirishning yangi xususiyatlaridan biri bu ma'muriy bo'linish, yoki biror bir to'r yordamida matematik usullarni va avtomatizatsiyani qo'llab kartaga olishdir. Fan, kadrlar tayyorlash va xizmat ko'rsatish kartalari tabiiy va iqtisodiy kartalari bilan chambarchas bog'liq, chunki aholining ijtimoiy ehtiyojini ta'minlashda xizmat ko'rsatish turlarini tashkil etish vazifalarining faoliyatida tabiiy sharoit albatta hisobga olinadi.³

Ijtimoiy-iqtisodiy kartalashtirishning bunday yo'nalishi mavzulari ifodalanayotgan sohalar turlariga bog'liq. Masalan, fan va kadrlar tayyorlash kartalarida ilmiy muassasalar, oliy, o'rta maxsus o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari tasvirlanadi. Umumta'lim kartalarida esa o'rta ta'lim (o'rta maktablar, maktab internatlar va hokazo), maktabdan tashqari va maktabgacha bo'lgan ta'lim muassasalari beriladi. Ma'naviyat va ma'rifat kartalarida turli madaniyat tashkilotlari (kutubxona, radio, televideniye, nashriyot va hokazo) ko'rsatiladi. Tibbiy xizmat ko'rsatish kartalarida sog'liqni saqlashning turli sohalari tasvirlanadi (muayyan vako'chma). Savdo sohasi, umumovqatlanish, kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish kartalari bu tarmoqlar holatini hamda aholiga xizmat ko'rsatishning qanday ta'minlanganligini ta'rifiyladi. Aholiga xizmat ko'rsatishga moliya tashkilotlari ham kiradi (banklar, valyuta biljalari va hokazo).

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari turlicha bo'lishiga qaramasdan, ularni kartalashtirishning umumiy jihatlari mavjud. Birinchidan, xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlari kartalashtirishda asosiy obyekt sifatida qoraladi . Bu obyektlarning ko'pchiligi muayyan va xizmat ko'rsatish markazlarida joylashgan.

³ T. Mirzaliyev, I. Musayev, E. Safarov, «Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya». «Yangi asr avlodi», 2009-yil. 129 b.

Bundan tashqari, joyning sharoitiga qarab ko'chma xizmat ko'rsatish shakllari tarqalgan: tibbiyot, savdo va madaniy-oqartuv sohalari bo'yicha. Ekspeditsion usullar bilan tuzilgan ilmiy-ma'lumotnomali regional atlaslarda xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlari xizmat doirasi beriladi (o'rta maktablar va kasalxonalar xizmat doirasi va boshqalar). Bu hududlar aholiga va unga xizmat ko'rsatish obyektlari doirasining ta'minlanganlik darajasini bildiradi.

Xizmat ko'rsatish, fan madaniyat tarmoqlari ifodalangan kartalarda maxsuslashgan xizmat ko'rsatish turlari, o'lchami va hududiy muhimligi ko'rsatiladi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari orasidagi bog'liqlikni ifodalash ham muhim o'rin tutadi.

Xizmat ko'rsatish obyektlarining yaqinligi alohida ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkich xizmat ko'rsatish obyektigacha bo'lgan masofalar yoki vaqt bilan yoki xizmat ko'rsatilayotgan aholining soni bilan belgilanadi. Aholining xizmat ko'rsatish obyektlari bilan ta'minlanganlik darajasini ushbu korxonaning quvvati belgilaydi. Masalan, 1000 kishiga to'g'ri keladigan kasalxonadagi o'rinlar, o'quvchilarning maktablar bilan ta'minlanganligi, xizmat ko'rsatish xodimlari soni o'gituvchilar, tibbiyot xodimlari va boshqalar.

Bundan tashqari, xizmat ko'rsatish obyektlarini va ularning intensivligi ham kartalarda ifodalanishi kerak, masalan bir kishiga to'g'ri keladigan tovar ayirboshlash, kutubxonalardan kitob oluvchilar soni va hokazo. Bunday ko'rsatkichlarni ham korxonalar va tashkilotlarning xizmat doirasida tasvirlash zarur.

Aholiga xizmat ko'rsatish tizimining turli sohalarini birlashtirib ko'rsatish katta ahamiyatga ega, chunki bu sohalar ijtimoiy faoliyatini birgalikda olib boradi. Xizmat ko'rsatishning kompleks va integrallashgan ko'rsatkichlarini regional atlaslarda tasvirlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday atlaslardagi kartalar, asosan, ikki yo'l bilan tuziladi – xizmat ko'rsatish markazlari va rayonlashtirish kartalari (tuman miqyosida aholiga xizmat ko'rsatish tizimlari). Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish turlari ko'payib borishini e'tiborga olsak, bunday kartalar

ko'pincha statistik tamoyillar asosida yoki turli markazlar va ularning hududiy mohiyati bo'yicha yoki integrallashtirilgan rayonlar misolida - ko'plab xususiyatlariga ko'ra va aholiga xizmat ko'rsatish darajasiga qarab tuzilmoqda. Bunday kartalarning asosiy mazmuni ularning legendasida beriladi.

Eng qiyin masalalardan biri - bu xizmat turlarining miqdor ko'rsatkichlarini taqqoslashdir. Bu ishlar asosiy fondlarning pul miqdori bilan o'lchansa, ancha tartibga solinishi mumkin, masalan, 1000 kishiga ko'rsatilayotgan xizmat. Xizmat ko'rsatish korxonalarining turli sohalar bo'yicha xizmat birligini aniqlab, butun xizmat ko'rsatish sohasini ta'riflash mumkin.

Xizmat ko'rsatishni sintetik kartalashtirishda, baholashda va xizmat ko'rsatishning fazoviy tarqalishini, dinamikasini kartaga olishda matematik kartografik modellashtirish usullarini qo'llash yaxshi natijalar beradi (Aholining dam olish zonalariga bo'lgan ehtiyoji, abituriyentlarning oliygohlarga o'qishga kirishga bo'lgan talabi va hokazo). Kartalashtirish uchun xizmat obyektlarini tanlash ularning darajasiga va joyning tabiiy sharoitga bog'liq, bu esa ushbu kartalarga ham generalizatsiya ishlarining aholi kartalariga o'xshash tarzda olib borishni talab qiladi.

1.2. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini geografik o'rganishda kartalashtirishning ahamiyati

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining taraqqiy etishi kishilarning turmush farovonligini yuksaltirish bilan birga, aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun bu soha ilgorigidek, qishloqdagi yagona sataroshxona yoki televizor tuzatish ustaxonasi emas, balki zamonaviy aloqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mehmonxona, restoran va boshqa ko'plab xizmatlar majmuini anglatadi. Tabiiyki, xizmat ko'rsatish shoxobchalarining ko'payishi raqobatning oshishi va xizmat sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Shu bois xizmat ko'rsatish va servis sohasidagi ishlar hajmini ko'paytirish bilan birga, uning sifatini yaxshilashga ustuvor vazifa sifatida

qaralmoqda. Bu vazifaning izchil amalga oshirilishi yangi ish o'rinlari yaratish, aholi turmush farovonligi va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi [Farmoniga](#)⁴ muvofiq qabul qilingan 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish" deb nomlangan uchinchi yo'nalishi 3.2.-bandida xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'zni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish belgilab qo'yilgan.

Kishilarning talab-ehtiyoji esa borgan sari miqdor va sifat jihatidan o'zgarib boradi, xizmat ko'rsatish sohasining tur va shakllari ko'payib turadi. Shu jihatdan olganda xizmat ko'rsatish soxalarini joylashuvini ko'rsatuvchi kartografik asarlar ahamiyati ham katta bo'lib, ular o'z xususiyatiga ko'ra bir qancha afzalliklarga ega. **Birinchidan**, aholiga xizmat ko'rsatish sohasining kartalari hududiylik tamoyiliga asosan hududdagi real voqeylikni ko'rsatib beruvchi manba hisoblanadi. **Ikkinchidan**, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari kartalari hududdagi jarayonlarni o'zgarishini o'rganish statistik ma'lumotlarga nisbatan ancha ko'rgazmali va aniq tasavvur hosil qiladi. **Uchinchidan**, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari joylashuvi va rivojlanishiga oid yillar davomidagi o'zgarishlarni aniq ko'rsatib beradi. **To'rtinchidan**, aholiga xizmat ko'rsatish sohasiga oid ma'lumotlarni aniq geografik tarqalishini faqat karta orqali tasavvur qilish mumkin. **Beshinchidan**, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari kartalarida ma'lum bir

⁴ http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036

hududga oid ma'lumotlarni ko'rgazmali belgi modellar va turli boshqa qo'shimcha ma'lumotlar bir tasvirda (varaqda) ifodalash imkoniyati mavjud va h.k.

Hozirgi davrda aholiga xizmat ko'rsatish o'ndan ortiq sohalarni o'z ichiga oladi. Jumladan ular: 1) uy-joy va kommunal xizmati; 2) chakana savdo; 3) umumiy ovqatlanish; 4) maishiy xizmat; 5) ta'lim xizmati; 6) sog'liqni saqlash; 7) ijtimoiy ta'minot; 8) rekreatsiya va turizm xizmati; 9) madaniy xizmat; 10) moliya xizmati; 11) yuridik xizmat; 12) aloqa xizmati; 13) yo'lovchi transporti xizmati; 14) yo'l va yo'l xavfsizligi xizmati va boshqalar. Ushbu xizmatlarning barchasi aholining turmush darajasi va yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan. Binobarin, ularning hududiy tashkil etilishi eng avvalo aholi joylashuvi, uning ijtimoiy-demografik xususiyatlari bilan belgilanadi⁵. Ko'rinib turibdiki sohaning ko'p tarmoqli ekanligi kartalashtirish jarayonida kartografik tasvirlash usullaridan foydalanish to'g'ri va oqilona hamda samarali foydalanishni taqozo etadi.

Aholiga xizmat ko'rsatish, uning hududiy xilma-xilligi, tarkibiy xususiyatlari va rivojlanishi bilan bog'liq hududiy tavsilotlarni ilmiy o'rganishda sohaga oid mavzuli xaritalarning ahamiyati katta.

Bugungi iqtisodiy islohotlar tobora chuqurlashayotgan sharoitda, aholi sonining ko'payib borishi va ularning ehtiyojlarini inobatga olgan holda aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini ilmiy asoslangan holda hududiy tashkil etish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Aholiga xizmat ko'rsatish sohasini geografik tadqiq etishda unga tegishli xususiyatlarni puxta bilishni taqozo qiladi. Hududning geografik voqea va xodisalari joylashuvini ko'rsatib berishda mavzuli kartalar katta ahamiyatga ega. Fan texnika yutuqlarini inobatga olgan holda mavjud imkoniyatlardan foydalanib zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida mavzuli kartalarni yaratish bugungi kunning talabi hisoblanadi. Zero, hududning geografik jihatdan qay darajada o'rganilganligi shu joyga oid tuzilgan mavzuli kartalar borligi bilan ham belgilanadi.

⁵ Солиев А. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари. – Т.: Университет, 2007. 72- бет

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng amalga oshirilgan islohotlarning negizida inson manfaatlari asosiy hal qiluvchi omil bo'lib kelmoqda. Bunda aholi va unga xizmat ko'rsatishga doir xususiyatlarni geografik o'rganishda mavzuli kartalar asosiy o'rinni egallab, ularning tahliliga katta e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy – iqtisodiy kartalar orasida aholiga xizmat ko'rsatish kartalarining o'ri o'ziga xosdir. Chunki aholi ham ishlab chiqaruvchi ham iste'mol qiluvchidir. Shuning uchun ham uni ehtiyojlarini har tomonlama o'rganishni talab qiladi. Mintaqadagi xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini joylashuvi va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish va qiyosiy taqqoslashda kartalar o'rganishning zarur omilidir.⁶

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini kartalashtirish va bu boradagi yutuqlarni turli tarmoqlar amaliyotiga tatbiq etish ham ishlab chiqarish sohalarining faoliyatlarini qulaylashtirishga qaratilgan. Xususan, mamlakat xo'jalik tuzilmasida yuqori o'rinlarni egallagan xizmat ko'rsatish sohasining tarmoq va hududiy xususiyatlarini turli usullar yordamida ilmiy o'rganish hamda bu boradagi jarayonlarni kartografik usullar orqali tadqiq etish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Ijtimoiy xizmat sohaları aholiga qaratilgan, aholi joylashuvi esa ishlab chiqarish tarmoqlariga ko'ra ancha turg'un. Qolaversa, bu xizmat sohaları kishilarning kundalik hayoti bilan bog'liq. Binobarin, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini joylashtirish bevosita mahalliy xokimiyat zimmasiga yuklanadi. Chunki, endigi sharoitda qaerda bolalar bog'chasini yoki o'rta maktabni qurish, dorixona yoki kasalxona tashkil etish, sanitariya-gigiena yoki o't o'chirish xizmatini tashkil qilish muammolari va hokazolar ilgorigidek markazdan turib emas, balki o'z joyida hal etilishi kerak.

Yana shuni e'tiborga olish lozimki ushbu sohalarda erkin raqobat kuchli va yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunonchi, kishilarning o'zlariga yoqqan hammomlari, sataroshxonalari, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari mavjud. Ularning

⁶ Мирзаахмедов Х., Акабоев И. Мавзули карталар тузишда геоахборот тизимини қўллаш афзалликлари // Фарғона водийси географлари уюшмасининг илмий–амалий семинари материаллари. -Наманган, 2015, 165-167 б.

ko'pchiligi hozirgi davrda xususiylashtirilgan. Masalan, birgina Toshkentda shaxsiy xonadonlarda oshxona yoki qahvaxonalarni ochish, turargoh va guzarlarda shaxsiy do'konlar tashkil etish bugungi kunda odat tusiga kirib qoldi.

Ammo, shu bilan birga, ba'zi xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil qilishda vaziyat ancha o'zgardi. Jumladan, hozirgi davrda yirik, ko'p o'ringa ega bo'lgan kinoteatrlarga ehtiyoj qolmadi. Televidenie, internet tizimi, telefon, radio, targ'ibot (reklama) va boshqalar ko'pgina xizmat turlarini «uyda» tashkil qilish imkoniyati tug'ildi. Hatto yirik magazinlar (Markaziy universal yoki Davlat universal magazinlari) ham endi avvalgidek gavjum emas, vaholanki ilgari ular shahar markazini hosil qiluvchi ob'ektlardan biri edi. Balkim, moddiy ishlab chiqarishda bo'lganidek, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida ham yirik korxonalar, mujassamlashuvning yuqoriligi ayniqsa yangi munosabatlarga o'tish davrida uncha maqbul emasdir.

Xizmat ko'rsatish sohalarining asosiy maqsadi aholiga barcha qulayliklarni yaratish, zamonaviy, sifatli xizmatlarni beminnat bajarish, uning dam olishini maroqli va mazmunli o'tkazish, vaqt va masofani tejashdan iboratdir. Ko'rinib turibdiki, bu masalalar o'z mohiyatiga ko'ra tom ma'noda dam olishini maroqli va mazmunli o'tkazish, vaqt va masofani tejashdan iboratdir. Ko'rinib turibdiki, bu masalalar o'z mohiyatiga ko'ra tom ma'noda ijtimoiy xususiyatga ega bo'lsada, ular bevosita va bilvosita iqtisodiyot bilan ham bog'liq. Sababi-o'qimishli, sog'lom, kuch-quvvatini tiklagan kishining mehnati ham unumli va samarador bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining kartalaridan hududdagi ushbu masalalarga oid javoblar olish imkoniyati bo'lishi mumkin. Biroq kartalashtirish jarayonida xizmat ko'rsatish sohalarining joylashuvi va hududiy tashkil etilishi bilan bog'liq jarayonlar o'rtasidagi aloqadorlik saqlanib qolishi lozim.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyoti hozirgi davrda aynan ana shu xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, servisni yaxshi yo'lga qo'yilganligi bilan ajralib turadi. Industrial bosqichdan o'tgan davlatlar-AQSH, Yaponiya, g'arbiy Yevropa,

Yangi industrial mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida mazkur sohaning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Birgina turizm xizmatida jahon bo'yicha 10% ishchilar band bo'lib, ular yalpi mahsulotning 10-12 %ni ta'minlaydilar. Ba'zi bashoratlarga qaraganda, turizm XXI asrning asosiy tarmog'i bo'ladi va u eksport tizimida neft va neftni qayta ishlash, avtomobilsozlikni chetlab o'tib, oldingi o'ringa chiqib oladi.

Turli mamlakatlarda barpo etilayotgan erkin iqtisodiy mintaqalarning ko'pchiligi savdo-sotiq, eksport-import, xalqaro turizmga ixtisoslashgan. Ularning ayrimlarida (masalan, Kipr yoki Irlandiyada) maxsus xizmat ko'rsatish, erkin savdo mintaqalari, ya'ni «ofshor»-lar tashkil qilingan. Ayniqsa moliya xizmati kuchaymoqda; London, Nyu-York, Tokio, Parij, Frankfurt, Singapur, Tsyurix, Lyuksemburg kabi «dunyoviy» shaharlar yirik bank-moliya markazlariga aylanmoqda. Tabiiyki, bunday xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan markazlar, EIM qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega bo'lishlari shart.

Yuqoridagi turli xil xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi har xil. Qolaversa, ularni shahar yoki qishloq joylarda o'rinlashtirish ham birday emas. Yana shuni e'tiborga olish kerakki, modomiki aksariyat xizmat turlari barcha uchun va hammavaqt ko'rsatilar ekan, u holda bunday xizmat ko'rsatishning darajasi, to'liqligi to'g'risida so'z yuritish talab qilinadi. SHu bilan birga xizmat turlari ham takrorlanishiga qarab har xil: kundalik, vaqt-vaqti bilan va davriy bo'ladi. Bu esa ularning hududiy tashkil qilinishiga ta'sir qiladi.

Aksariyat xizmat turlariga kishilarning o'zlari boradi, ayrimlari kelib xizmat ko'rsatishadi (o't o'chirish, kommunal xo'jalik xizmati, uy jihozlarini ta'mirlash, tez yordam va h.k.), yana boshqalari esa o'zaro harakatda amalga oshiriladi (yo'lovchi tashish xizmati). Ba'zi xizmat turlari borki, ular uyda va o'z ishxonasida bajarilishi mumkin. Masalan, pochta, aloqa xizmati va b. SHunga o'xshash to'y va marosim, targ'ibot xizmatlarini tashkil etish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ayrim ijtimoiy xizmat sohalari aholiga bepul ko'rsatiladi. Biroq, bozor munosabatlari shakllanib borgan sari bunday turdagi sohalar soni kamayib boradi. Chunonchi, hozirgi davrda sog'liqni saqlash va ta'lim tizimi bularga misol bo'la oladi. Ularning qisman davlat tasarrufida qolishi va xususiylashtirilishi, aralash shakllari o'ziga xos raqobat muhitini yaratadi. Mazkur holat bugungi kunda ayniqsa aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda juda aniq kuzatilmoqda (masalan, stomotologiya, dorixona xizmatlari sohasida).

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish aholiga mo'ljallangan ekan, uni hududiy tashkil etish ham aholi joylashuvi, uning yosh-jins va boshqa demografik xususiyatlariga qarab amalga oshiriladi. Ayni vaqtda aholiga xizmat ko'rsatish sohasini joylashtirish shahar va qishloqlarda har xil. Masalan, shaharlarda, xususan yirik markazlarda xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil qilish alohida mavze va mahallalar doirasida bajariladi; bunday sharoitda servis korxonalari ancha zich bo'ladi, ular deyarli «har qadamda» uchrab turadi (ayniqsa savdo do'konlari). Tish davolash, dorixonalar ham juda ko'p, bog'cha, maktab, kasalxonalar, rasmxona, notariat korxonalari va boshqalar esa nisbatan kamroq va zichligi ham pastroq. Ammo ularning joylashuv xususiyati qishloq manzilgohlariga qaraganda nihoyatda zich. Bu esa shahar sharoitida hududning ahamiyati va qiymati juda yuqoriligidan dalolat beradi. Binobarin, hududni ijtimoiy tashkil qilish shaharlarda o'ziga xosdir. Sotsiologiya, rayon planirovkasi kabi fanlar shahar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini ana shunday mikrogeografik darajada o'rganadi va tashkil qiladi. Bunday masalalarni ha etishda xizmat ko'rsatish kartalari asos bo'lib xizmat qiladi.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohasini joylashtirish pog'onasimon, ierarxiya shaklida bo'ladi. Bu haqda avvalroq V.Kristallerning oltiburchaklari va «markaziy o'rin» g'oyasi haqida aytilgan edi. Mazkur sohalarning aynan ana shunday tashkil qilinishi eng avvalo aholi joylashuvi, aholi manzilgohlarining katta-kichikligi, ularning bajaradigan vazifasi (funktsiyasi) va transport bilan ta'minlanganligiga qarab amalga oshiriladi. Markaziy o'rinlar kattalashgan sari past bosqichdagi markazlar xizmat ko'rsatish turlarini ham qamrab oladi yoki, aksincha, ular

kattalashgan sari xizmat ko'rsatish turlari ham ko'payib boradi. Eng yuqori bosqichdagi markazda servis sohalarining noyob, betakror, oliy darajadagilari o'rinlashtiriladi, qolgan barcha tarmoqlar esa mahalliy, ya'ni shu shahar aholisi uchun ahamiyatli bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohalari kartalarida mana shunday mujassamlashuv va ixtisoslashuv jarayonlarini tasvirlash usullaridan foydalangan holda kartalashtirish hududiy tashkil etish qonuniyatlarini o'rganishda katta samara beradi.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishini savdo xizmati misolida ko'rib chiqiladigan bo'lsa eng kichik qishloq yoki ovullarda kundalik xarid mollariga ixtisoslashgan do'konlar mavjud; ulardan kattarog'ida yoki bir-biriga yaqin joylashgan qishloqlarning birida savdo do'konlarining turlari ko'payadi (oziq-ovqat, sanoat mollari magazinlari), ulardan ham kattarog'ida qo'shimcha do'konlar (madaniy, xo'jalik mollari magazini) joylashtiriladi. Tuman markazlarida do'konlar soni va turi yanada oshadi, yirik universal va universam magazinlari tashkil etiladi, viloyat markazlarida savdo yarmarkalari, poytaxtda - savdo markazlari faoliyat ko'rsatishadi. Mazkur holatlar kartalashtirish jarayonida o'z aksini topadi va aholi punktlari xususiyatlaridan kelib chiqib xizmat ko'rsatish sohalarining joylashuvini aniqlashga yordam beradi.

Xuddi shunga o'xshash holatni ta'lim yoki sog'liqni saqlash tizimida ham uchratamiz. Chunonchi, aholi punktlarining kattalashib borishi bilan maktablar soni, mujassamlashuvi, turi o'zgarib boradi.

Sog'liqni saqlashda fel'dsher-akusherlik punktlaridan boshlab poliklinika, tug'uriqxona va kasalxonalar, tor ixtisoslashgan kasalxonalar, tashhis markazlari turli xil bosqich va ta'sir radiusiga ega bo'lgan shaharlarda tashkil qilinadi.

Ma'lumki, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini joylashtirishga eng avvalo demografik omillar ta'sir etadi. Ammo tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ahamiyatini ham inkor qilish to'g'ri emas. Jumladan, tabiiy sharoit avvalambor bevosita sanatoriya-kurort xo'jaligi, dam olish (rekreatsiya) zonalarini rivojlantirishda e'tiborlidir. Bilvosita esa u kishilarning ovqatlanish, kiyinish kabi

ehtiyojlarini qondirishlarida o'z aksini topadi. Sohaga oid kartalar tayyorlashda ushbu xususiyatni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Turizm xizmati uchun tarixiy obidalar hamda tabiiy sharoit muhimroqdir. Biroq, barcha aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil qilishda albatta transport omili e'tiborga olinadi. Qolaversa, markaziy o'rinlar ham o'zlarining transport-geografik mavqeiga qarab ajratiladi va ular turli ko'lamdagi ta'sir doirasiga, zonasiga ega bo'ladi. Kartalarda ushbu omillarning yetakchilik imkoniyatlari ko'rsatiladi

Markaziy o'rinlar aholiga xizmat ko'rsatish sohalari mahalliy, mintaqaviy, mintaqalararo va milliy bozorlarini tashkil qiladi. Ushbu sohalar ob'ektlarining o'zaro muvofiqlashtirgan holda joylashtirilishi hududiy majmualarni shakllantiradi. Masalan, dorixona, poliklinika va kasalxona yoki bolalar bog'chasi va maktablarning bir joyda tashkil etilishi, masjid, madrasa va qabristonlarning joylanishi o'ziga xos hududiy majmualarini vujudga keltiradi. Xuddi shunday, maishiy xizmat ko'rsatish turlarining ham kombinat shakllari mavjud.

Shahar aglomeratsiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'p jihatdan aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining faoliyati bilan bog'liq. Chunki, aglomeratsiya hosil qiluvchi eng muhim omil –bu aholining mayatniksimon tebranma harakati, o'qishga, dam olishga, da'volanishga, ma'lum bir boshqa hojatini qondirish maqsadidagi doimiy (muntazam) yoki davriy, vaqt-vaqti bilan qatnovidir.

Hozirgi kunda aholiga xizmat ko'rsatish sohalari orasida moliya, bank-kredit, soliq, sug'urta, omonat kassalar xizmatining ahamiyati ham oshib bormoqda. Bu esa bozor infrastrukturasini tashkil qilish va rivojlantirishni dolzarb muammo qilib qo'yadi.

Aholi va unga xizmat ko'rsatish sohalarini o'rganishda kartografiyaning o'ziga munosib o'rnini bor. Bu hissa, barcha fanlarga kartalarning yordam berishi bilan xarakterlanadi. Masalan, aholi kartalarida aholi tug'ilishi, o'qishi, ishlashi, nikoxlar va boshqa demografik ko'rsatkichlarni berish imkoniyati ham mavjud.

Qolaversa geografiyada ushbu sohalar bilan tutash bo'lgan muammolarning hududiy jihatlarini keng o'rganiladi. Qolaversa, yuqoridagi voqealar (tabiiy va notabiiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hodisalar) faqatgina qachon va ma'lum vaqt doirasidagina emas, balki qaerdadir muayyan geografik muhitda, hudud-makonda sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda geografiya aholi va unga xizmat ko'rsatish sohalarini o'rganishda kartalashtirish natijalarni umumlashtiruvchi vazifasini ham o'taydi.

Aholi xizmat ko'rsatish kartalarining turlari va tiplarining xilma-xilligi va ular yordamida yechiladigan masalalar kartografiyaning ko'plab ko'rsatkichlari va birliklari orqali aniqlanadi. Bunda asosiy ko'rsatkichlar xizmatlar turi va aholi bandligidir. Bulardan tashqari moliyaviy ko'rsatkichlar(ish haqi, daromadlari), normativ va boshqa hisob ko'rsatkichlari(masalan, aholiga xizmat ko'rsatish darajasi, aholi salomatligiga ekologik holatning ta'siri va boshqalar) ham qo'llanishi mumkin.

Aholi va unga xizmat ko'rsatishni kartografiyalashda uning turli sohalarini, zichligini, geografik joylashishini, aholining o'sishi va ehtiyojlarini, aholi migratsiyasini, aholining tarkibini, diniy e'tiqodlari va boshqa xususiyatlarini chuqur o'rganib, ularni tasvirlash usullarini to'g'ri tanlab, so'ng kartasini yaratish kerak. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda aholi va unga xizmat ko'rsatish kartalarining roli kattadir.

Xizmat ko'rsatish tarmoqlari uchun aholining ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan zarur bo'lgan: aholi ehtiyojlarining turlari va hududiy xilma-xilligini, aholining sonini, milliy va diniy tarkibini, aholining sohalar bo'yicha mutaxassisligi va ba'zi bir demografik ko'rsatkichlarni aniqlash muhim hisoblanadi. Yuqorida qayd qilingan aholi xususiyatlarini o'rganish va uning kartasini tuzish aholiga xizmat ko'rsatish kartografiyasining predmeti desa bo'ladi.

Aholi va unga xizmat ko'rsatish kartalarini tuzishda, asosan, statistik ma'lumotlarga asoslanadi. Statistik ma'lumotlarni kartaga tushurishda

qo'llaniladigan kartografik usullarga ham bog'liq bo'lib, ular esa kartaning maqsadi va mazmuniga ko'ra tanlanadi.

Hududning aholi va unga xizmat ko'rsatish kartalarini yaratish ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatdan o'rganishga yordam beradi. Aholisi zich bo'lgan hududlarning aholisini ish bilan, oziq-ovqat va yashash joyi bilan ta'minlash va boshqa xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hamda muammolarini hamda muammolarini hal etishda foydalanish mumkin. Aholi zichligi kam hududlarda esa aholini ko'chirib keltirish va ularga kerakli sharoit yaratish masalalarini hal qilishda ahamiyati kata. Shuning uchun aholisi zich hududlarda ishga yaroqli aholi soni, aholining o'sishi, nafaqaxo'rlar soni, bolalar soni, aholining bilim darajasi, ish bilan ta'minlanishini geografik joylashishi to'g'risida qo'shimcha ma'lumot beradigan kartalar tuzish zaruriyati tug'ilmoqda.

Aholi va unga xizmat ko'rsatish sohalarini sof, maxsus geografik o'rganishdan tashqari, uni qo'shni, turdosh fanlar qirrasida tadqiq etishda ham mavzuli kartalar ichida aholi kartalari katta ahamiyatga ega. Bu har fan sohasida aholi bilan bog'liq holatlarni o'rganishda kartografik manbalar ilmiy vosita sifatida ishtirok etadi.

Mazmunining to'liqligi bo'yicha kartalar nafaqat iqtisodiy sanoat sohalarini, aholini va unga xizmat ko'rsatish sohalarini, ya'ni butun ijtimoiy-iqtisodiy hayotni tasvirlashi mumkin.⁷

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini geografiyasini o'rganish ham qishloq joylarda qulay va ayni vaqtda dolzarbdir. Sababi – birinchidan, qishloqlarda bunday tarmoqlarni tashkil etish shahar muhitiga nisbatan ancha hududiyroqdir: ikkinchidan, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining ahvoli shahar joylarga ko'ra qishloqlarda nochorroq darajada. Ana shu ob'ektiv holatlar qishloq joylarda aholiga xizmat ko'rsatish sohalar geografiyasini o'rganishni muhim qilib qo'yadi.

Shu bilan birga, qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish va ushbu ehtiyojlarga bo'lgan talabni qishloq joylarning o'zida qondirish orasida jiddiy farq mavjud.

⁷ T. Mirzaliyev, I. Musayev, E. Safarov, «Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya». «Yangi asr avlodi», 2009-yil. 126 b.

Tabiiyki, qishloq aholisiga xizmat ko'rsatishning noyob va tanqis shakllari, uning yuqori bosqichlari tuman, viloyat va xatto mamlakat markazida amalga oshiriladi. Shu jihatdan hududning har xil darajadagi shaharlar – markaziy o'rinlar bilan ta'minlanganligi, ularning qishloq aholisi qatnovi uchun qulayligi, yo'l sharoitlari katta ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtda qishloq aholisining barchasi uchun zarur bo'lgan kundalik ehtiyojlar mumkin qadar ular yashaydigan joylarning o'zida qondirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa qishloq joylarda aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining to'ri, tarkibi va tizimiga bog'liq.

Mohiyatan, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari kishilarning sotsial ehtiyojini qondirsa–da, ular aslida sotsial–iqtisodiy jabha hisoblanadi. Chunki, mazkur sohalar negizida iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy ob'ektlar yotadi. Shuning uchun bunday tarmoqlarni o'rganish iqtisodiy geografiyaning tom ma'nodagi ijtimoiy geografiyaga aylanishida asosiy ko'prik yoki yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Biroq, bu haqiqiy sotsial (tor ma'nodagi ijtimoiy) geografiyaga emas, sotsial geografiyaga, eng avvalo, kishilar yoki aniqrog'i–shaxsning shakllanishi va rivojlanishi, urf–odati, yashash sharoiti va tarzi, e'tiqodlari bilan aloqador hududiy masalalar taaluqlidir.

Aholiga xizmat ko'rsatish (servis) sohalari turlicha: ular savdo, komunal, madaniy – maishiy, tibbiy, maorif, moliya va boshqa shakllarda bo'ladi. Ammo bu yerda yuqoridagi sohalarni alohida xalq xo'jalik tarmog'i sifatida ham ko'rish mumkin. Chunonchi, savdo xo'jalikning muhim tarmog'i bo'lib, u o'zining joylanish xususiyatlariga ega. Savdo geografiyasida asosiy masala aholiga savdo xizmatini ko'rsatish bilan birga ushbu tarmoqning iqtisodiyoti ham nazarda tutiladi. Shuning uchun savdo geografiyasi ushbu tarmoq shaxobchalarining soni, maydoni, joylanishi, turi kabi jihatlarni o'rganadi. Aholiga savdo xizmatini ko'rsatish geografiyasida esa, yuqoridagilardan tashqari, ularning aholi joylashuvining demografik tarkibiga mos kelishi, qatnov uchun qulayligiga urg'u beriladi. Demak, birinchisida savdo tarmoq nuqtai nazardan qaralsa, ikkinchisida asosiy mezon aholi va uning xarid ehtiyojlari hisoblanadi.

Shunday qilib, savdo misolida biz uning turli tomonlarini ko'ramiz, savdo – xalq xo'jalik tarmog'i (tarmoq tizimi), savdo shaxobchalarining geografiyasi (hududiy tizim, sotsial – iqtisodiy geografiya), aholiga savdo xizmatini ko'rsatish – tarmoq tizimi, aholiga savdo xizmat ko'rsatish ob'ekting guvohi bo'lib turibmiz. Shu bois, uni atroflicha o'rganish va tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda aniq tahlil etish talab etiladi.

Tibbiyot geografiyasi va aholigi tibbiy xizmat ko'rsatish geografiyasi o'rtasida ham shunga o'xshash holatni kuzatish mumkin. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish geografiyasi ushbu tarmoqqa tegishli muassalarning (kasalxona, shifoxona, dorixona va h.k.) hududiy tarkibi va tizimi, aholi geografiyasiga nisbatan joylashuvini, ularning yetarli va qulaylik darajasini nazarda tutadi. Tibbiyot geografiyasining predmeti esa kasalliklarning turli mamlakat yoki rayonlarda tarqalish sabab va qonuniyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Ayni paytda aholiga xizmat ko'rsatish sohalari bilan sotsial infrastruktura o'rtasida ham ma'lum farqlar mavjud. Bu yerda birinchi – tarmoq, binobarin, u moddiy yoki ma'naviy boylik yaratadi, ikkinchisi esa, tarmoq emas, balki ushbu tarmoqning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan shart – sharoitlar majmuidir. Aytaylik, tibbiyot sohasidagi bemorlarga xizmat ko'rsatish – bu ijtimoiy tarmoq, unga tegishli muassasalarning zamonaviy asbob – uskunalar bilan jihozlanganligi, tozaligi, dam olish va muolaja xonalarining mavjudligi kabi sharoitlar ushbu sohaning infrastrukturasidir.

Aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasining metodologik asosi aholi geografiyasi hisoblanadi. Shuning uchun, ularning har ikkisi ham mazmunan sotsial – iqtisodiy geografiyaga muvofiq keladi va u ijtimoiy geografiya tizimidagi o'rta, bog'lovchi (iqtisodiy geografiya bilan sotsial geografiya o'rtasidagi «ko'prik») vazifasini o'taydi.

Mazkur servis sohalari geografiyasini o'rganishda aholi soni, uning joylanishi, tabiiy va migratsiya harakati, demografik tarkibi hal etuvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, aholi manzilgohlari va transport infrastrukturasining

rivojlanganligi, qishloq va shaharlarning o'zaro joylashuvi, zichligi ham inobatga olinishi kerak.

Aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Chunonchi, bu soha uchun aholining daromadi va harajati (jon boshiga), har 100 ming kishiga to'g'ri keladigan kasalliklar soni, nogironlik, tug'ilish, o'lish va tabiiy ko'payish, kasalxona o'rinlari va ambulator – poliklinika hamda maktabgacha bo'lgan bolalar muassasalari bilan ta'minlanganligi, savdo shaxobchalarining maydoni, savdo –sotiq ko'rsatkichlari va boshqalar tahlil etiladi.

Ammo, statistik ma'lumotlar tahlili hamma vaqt ham real holat aks ettirmaydi. Shuning uchun, qo'shimcha ravishda maxsus sotsial demografik tadqiqotlar (anketa so'rovlari) o'tkazish zarur qilmaydi. Masalan, aholini tibbiyot sohalariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirganlik darajasi, muassasalarning yetarli yoki yetarli emasligi, qulayligi va boshqa masalalarni shu usul asosida bevosita o'rganish mumkin.

Aholiga maorif xizmatini ko'rsatish, maktablar geografiyasini o'rganish ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bu eng avvalo, maktab ta'lim tizimining aholining barcha qismiga emas, balki faqat maktab yoshidagi bolalar uchun taaluqligidan kelib chiqadi.

Maktablar geografiyasida aholi va ayniqsa, aholi punktlarini joylanishi, katta–kichikligi, ularning zichligi muhim ahamiyatga ega. Gap shundaki, qishloqlarning aholiylik (katta – kichiklik) darajasiga qarab turli bosqich va yo'nalishlardagi maktablar joylashtiriladi. Ba'zi hollarda maktablar «aglomeratsiya» shaklida, ya'ni o'zining filiallari bilan uyushtiriladi. Bunda kolledj va akademik litsey markaziy transport jihatidan qulayroq joylashgan qishloqda, to'qqiz yillik boshlang'ich sinflar esa unga yaqin bo'lgan kichikroq qishloq qo'rg'onchalarda o'rnatiladi.

Ta'lim tizimining Yangi Milliy dasturiga muvofiq to'qqiz yillik maktablar va keyingi bosqichdagi o'quv yurtlari–akademik litsey, kolledjlarni hududiy tashkil etish ana shunday sharoitlarni, aholi manzilgohlari geografiyasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Maktablarni ham boshqa ob'ektlar kabi tabaqalarga (klassifikatsiyalash), alohida tiplarga va o'qitiladigan tiliga qadar guruhlash mumkin. Shuningdek, tuman yoki viloyatdagi umumta'lim maktablarining o'rtacha kattaligi, har bir qishloq kengashi va alohida qishloqlarga to'g'ri keladigan maktablar soni aniqlanadi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, maktablarning haddan tashqari yiriklashuvi talabalarning borish – kelishi, ta'lim – tarbiya ishlarida noqulayliklar tug'diradi

Ayni vaqtda maktablarni hududiy tashkil etishga ham jiddiy e'tibor qaratish kerak. Shu nuqtai nazardan maktablarning katta magistral yo'l yoqalarida, yuqumli yoki asab kasalliklarini davolovchi bemorxonalar, chorva fermerlari, shovqin chiqaruvchi joylarda o'rnashtirilishi nodurustdir. Demak, bu yerda keng miqyosli geografik fikrlash zarur.

Savdo, tibbiyot va maorif muassasalarini ham hududiy hajm shaklida tashkil etish mumkin. Masalan, savdo tizimida ma'lum bir joy turli xil do'konlarni joylashtirish, tibbiyotda shifoxona, kasalxona, dorixona va boshqa muassasalarni yoki maorif sohasida maktablar bilan, maktab yoshigacha bo'lgan bolalar bog'chasi va yaslilarni uyg'unlashtirgan holda hududiy tashkil qilish ancha qulayliklarga ega. Bunday birikmalar hududiy noishlab chiqarish majmualaridir. Xuddi shunday maishiy xizmat ko'rsatish sohasining hududiy tizimlari (majmualari) shakllantiriladi. Ularni bu yirik qishloqlar markazida, shahardarning turli daha va mavzellarini uchratamiz. Chunonchi, sovutgich, radio, televizor va boshqa ro'zg'or buyumlarni, oyoq kiyimlarni ta'mirlash ustaxonalari, kiyimlar atelezi, kimyoviy tozalash korxonalari, suratxona va sartaroshxona kabilarni shahar yoki qishloqlarning ma'lum bir nuqtasida tashkil etilishi ana shunday hududiy (mahalliy) noishlab chiqarish majmualariga yaqqol misol bo'la oladi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida aholiga xizmat ko'rsatish korxonalarini joylashtirish va rivojlantirishda ma'lum o'zgarishlar bo'lishi ayondir. Ammo, bunday muassasalarni davlat tasarrufidan chiqarish imkoniyatlari barcha sohalarda bir xil emas. Masalan, savdo tizimida bu jarayon, ya'ni mulk egasini

o'zgartirish kengroq va jadalroq kechadi. Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini xususiylashtirish ham nisbatan osonroq. Ayni paytda tibbiyot va maorif sohalarida nodavlat sektorini rivojlantirish ancha qiyin. Bu borada tibbiyot tizimidagi dorixona, Tish davolash va diagnostika (tashxisxona) muassasalarini xususiylashtirish mumkin, lekin davolash sohasi qisman davlat qaramog'ida bo'lmog'i kerak. Xuddi shunday maorif sohasida ham shaxsiy maktab yoki bog'chani ochish kam uchraydigan holdir.

Hozirgi vaqtda aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish va boshqarish mas'uliyati to'la – to'kis mahalliy tashkilotlarga – tuman hokimlari va mahalla komitetlariga yuklanadi. Bu bejiz emas, albatta. Sababi – ushbu sohaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, kundalik va barchaga tegishli ehtiyojlarni markazlashtirgan holda boshqarish g'ayri tabiiydir. Darhaqiqat, aholining davolanishi, kundalik xarid mollarini sotib olishi, maishiy ehtiyojlarini qondirish aksariyat hollarda uning yashash joyining o'zida amalga oshiriladi. Binobarin, bunday muassalarning ta'sir doirasi, xizmat ko'rsatish radiusi ham uncha katta emas. Masalan, maktablar o'rtasidagi masofa qishloq joylarda taxminan 4 – 5 km dan oshmasligi kerak, dorixona magazinlar (do'konlar) yoki sataroshxonalar esa yanada zichroq, yaqinroq joylashadi. Faqat xizmat ko'rsatishning yuqori bosqichlari kam tarqalgan va o'ta xavfli kasalliklarni davolovchi bemorxonalar, diagnostika markazlari, ixtisoslashgan savdo do'konlari, o'rta maxsus (akademik litsey, kollejlari) va oliy o'quv yurtlari aholi joylashuv tizimining yuqori pog'onalaridan o'rin oladi. Shu bilan birga hozirgi bozor munosabatlariga o'tish sharoitida xususiy do'kon va sataroshxona, avtomobillarga turli xizmat ko'rsatish punktlarini joylashtirish nihoyatda erkin tus olmoqda. Shu bois, ularni hududiy tashkil etish biror – bir qonuniyatga qat'iy rioya qilmaydi va ba'zan tartibsiz amalga oshiriladi. Pirovard natijada ularning «yashovchanligini» talab va taklif, erkin raqobat belgilaydi.

Aholi joylashuvini hududiy tashkil etishda V.Kristallarning «markaziy o'rinlar» g'oyasini amalda qo'llash ma'lum ahamiyatga ega. Uning bu sohadagi

modeli asalarining inisimon oltiburchaklar majmuasidan iborat. Bunda aholi manzilgohlari o'zlarining katta – kichikligiga qarab turli hududiy xizmat ko'rsatish ta'sir doirasiga, radiusiga ega bo'ladi. Ushbu markazlar bir – birini to'ldiruvchi, ierarxiya (pog'onasimon) shaklida tashkil etiladi. Shuning uchun bu g'oyani «markaziy o'rinlar» (yoki «teoriya tsentralных мест») deb yuritiladi.

To'g'ri, aholiga xizmat ko'rsatish muassasalarini bunday shaklda hududiy tashkil etish biroz mavhumroq tuyuladi. Chindan ham bu g'oyaning amalga tadbiiq qilinishi hududning aholi joylashuvi uchun aynan bir xil qulaylikka ega bo'lishini, transport yo'llarining tekis rivojlanganligini hamda tuman markazi va shaharlarni pog'onasimon tartibda mavjudligini talab etadi–ki, bunday sharoitlar real voqeilikda kamdan – kam hollarda uchraydi.

Biroq, V.Kristallerning bu g'oyasi ma'lum kamchiliklarga ega bo'lsada, amaliyotda shunga yaqin yoki shu tamoyil asosida xizmat ko'rsatish shaxobchalarini tashkil qilishga urinish maqsadga muvofiqdir. Bunda yuqoriga borgan sari aholi ehtiyojlarining qondirilish ko'lam i kengayib boradi va eng yuqori bosqichlarda xizmat ko'rsatishning noyob shakllari joylashtiriladi. Bu muassasalar rayon hosil qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi, qolgan pastki pog'onalar dagi (qatlamlardagi) xizmat ko'rsatish korxonalari esa mahalliy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo'ladi.

Shunday qilib, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasini o'rganish ham dolzarb yo'nalishlardan hisoblanadi. Ushbu sohaning rivojlanishi turli maqsadlarni ko'zlaydi: aholining yashash darajasi va sharoiti yaxshilanadi, kishilarning vaqti tejaladi, mehnat resurslaridan to'laroq va samarali foydalanishga imkon yaratiladi. Qolaversa, qishloq va shahar joylarda aholiga xizmat ko'rsatishning zamonaviy tizimini, servis sohasini va uning moddiy asosi – ijtimoiy infrastruktura shaxobchalarini tashkil etish katta iqtisodiy natijalargazamin yasaydi. Bunga ilg'or mamlakatlar tajribasi yaqqol misol bo'la oladi. Aynan shuning uchun respublikamiz rahbariyati mazkur sohaning ahvoli va uni tubdan

yaxshilashga jiddiy e'tibor bermoqda. Geograflar esa ko'zda tutilgan chora – tadbirlarni amalga oshirilishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishlari lozim.

1.3. Aholiga xizmat ko'rsatish kartalarini tuzishda zamonaviy usullarni qo'llash

Bugungi kunda insoniyat axborot-texnologiyasi davrini boshidan kechirmoqda. U yildan-yilga kuchayib, inson faoliyatining ko'plab sohalariga kirib bormoqda. Buning natijasida kartalashtirish sohasida ham ko'plab manbalardan olinadigan axborotlardan foydalanish zaruriyati tug'ilmoqda. Turli mavzuli geografik kartalar va atlaslarni tuzishda, aerokosmik tasvirlarni deshifrovka qilishda, dalada o'lchash natijalarini qayta ishlash va kompyuter tizimlarida ma'lumotlarni to'plashda boy tajribaga ega bo'lishni davr taqozo qilmoqda.

Ma'lumotlarning ko'plab turlarini vaqt o'tishi bilan tez-tez o'zgarib turishi, oddiy usulda tuziladigan qog'ozli kartadan foydalanishni ancha qiyinlashtirib yubormoqda. Bugungi kunda tezkor axborotlarni qabul qilish, ularning dolzarbligini ko'rsatish faqatgina avtomatlashtirilgan tizim kafolatlashi mumkin.

Keyingi yillari O'zbekistonda geoaxborotli tizim aholi punktlarini va xizmat ko'rsatish sohalarini kartalashtirish uchun keng qo'llanila boshlandi.

Geoaxborot tizimi texnologiyasi ushbu alohida-alohida ajratilgan ma'lumotlarni to'plash hamda yagona ko'rinishda saqlash, yangilab turish, tahlil qilish, istalgan operatsiyalarni bajarishga, barcha o'zgarishlarni kuzatib borishga, turli tuman kartalar, planlar, jadvallarni olishga imkon beradi.

Shunday qilib, aholiga xizmat ko'rsatish kartalarida geoaxborot tizimi uning foydalanuvchilariga(tibiyot va boshqalar) quyidagi imtiyozlarni beradi:

- aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq turli xil axborotli ta'minotini qabul qilish uchun yagona ma'lumotlar bazasiga barcha axborotlarni bog'lash va kelishish;

- turli darajadagi maydalashgan axborotlar bo'yicha foydalanuvchi tomonidan olish, tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun regional geoaxborot tizimidan foydalanish;
- aholiga xizmat ko'rsatish kartalarni yaratish va yangilab turish bo'yicha xarajatlarni kamaytirish.

Hozirgi kunga kelib, xalq xo'jaligininig deyarli barcha tarmoqlarida geografik informatsion tizimlaridan keng foydalanilmokda. Xususan, aholiga xizmat ko'rsatish kartalarini yaratishda, xizmat ko'rsatishning ma'lumotlar bazasini yaratish, ularni o'rganish va rivojlanishi va boshqalar.

GATda tuzilgan karta oddiy qog'ozli kartadan yaxshi bezalgani, kompyuterli shakldaligi, qo'lda bajarib bo'lmas darajadagi aniqligi va boshqa bir qator afzalliklari bilan farq qiladi. Kartaga istagancha o'zgartirish kiritish, yangi mazmun va bo'yoq berish, diagramma va boshqa ma'lumotlarni kiritish, o'chirish va h.k. ishlarni bajarsa bo'ladi.

GATni bilishning eng oddiy usuli – u bilan ishlash, uning imkoniyatlarini ish jarayonida bilib olishdir. Aslida GAT – bu bitta texnik vosita bo'lib, uning yordamida faqatgina chiroyli qilib kartani jihozlash emas, balki yechimi mavjud bo'lmagan ba'zi masalalarni yechish ham mumkin. Shu sababli GATning imkoniyatlari juda katta. Demak GAT – turli usul va uslublar yordamida real borliq to'g'risida to'plangan katta hajmli axborotlarni o'zining ma'lumotlar bazasida jamlab, ishlay oladigan keng rivojlangan kompyuterlashgan aniq tizimdir⁸.

Kartalarni loyihalash va yaratish murakkab ish jarayoni bo'lib, ko'p mehnat talab qiladi. Shu bilan birga bir qancha texnologik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Kartani tuzish texnologiyasini ishlab chiqish kartaning taxririyy tayyorgarlik jarayoniga kiradi. Kartani tayyorlash amaliyotida har xil texnologiyalardan

⁸ Сафаров Э.Ю., Мусаев И.М., Абдурахимов Х.А. Геоахборот тизими ва технологиялари. Дарслик. -Т.: 2012, 104- б.

foydalaniladi. Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan bir paytda geografik kartalarni tuzishda avvalgi ananaviy usullardan farqli o'laroq zamonaviy kartografik usullardan va geografik axborot tizimlaridan keng ko'lamda foydalanib, tegishli hududlarning mavzuli kartalari tuzilmoqda. Zamonaviy usulda tuzilgan kartalarning ananaviy usulda tuzilgan kartalardan farqi juda kattadir. Malumotlarni yetkazib berish, matematik asosning aniqligi, malumotlar bazasining boyligi, hududda biron bir tabiiy o'zgarishlar sodir bo'lsa kartalarning malumotlar bazasiga tezda kiritilishi kabi afzallik tomonlariga ega. Shuningdek, bugungi kunda har bir soha vakillari uchun ma'lum bir obektning geografik joylashuvi to'g'risidagi ma'lumot muhim ahamiyat kasb etadi. Geografik axborot tizimi bu mavjud axborot tizimlarining shunday bir sinfiki unda voqea-hodisa, faoliyat yoki undagi tafsilotlar bilan birga ularning qaerda mavjudligini yani, tasvirini ham o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda GATga foydalanilishi jihatidan teng keladigan tizim yo'q, chunki uni bilimlarning barcha sohasida qo'llash mumkin.

Tabiiy geografiyada GAT tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni, ularning kelib chiqishini, o'zaro bog'liqligini va yer yuzasida tarqalganligining mohiyatini tushuntiradi hamda bu metodlarni amalga oshirish imkonini yaratadi; har qanday tadqiqot va qarashlarga fazoviy yondashish kerakligini tavsiya etadi. GAT orqali geografiya fani oldida turgan muhim vazifalarini yechish uchun juda zarur bo'lgan kuchli qurolga ega bo'lib bormoqda. Bu fanda GATni ma'lumotlarni yig'ish, tizimlash (tartibga solish), saqlash, ishlov berish, baholash, tasvirlash va tarqatishni amalga oshiradigan va ular asosida yangi axborot va bilimlarni olish vositasi sifatida qaraladigan interaktiv tizim, deb ta'riflasha bo'ladi.

Ijtimoiy va iqtisodiy geografiyada GATdan foydalanib, ro'yxatli- statistik ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash, tasvirlash ishlarini bajarish mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy kartalarda generalizatsiya ishlari matematik metodlar va avtomatizatsiyani qo'llash natijasida bajarilib, iqtisodiy geografiyani haqiqiy geografik yo'nalish olishini ta'minlaydi. Bu fanda GAT - apparat-dasturli vosita va

inson faoliyatidan iborat bo'lgan geografik ma'lumotlarini saqlash, ularga ishlov berish va natijalarni tasvirlay oladigan majmua sifatida qaraladi.

Aholi geografiyasida mantiqiy-matematik taxlillar qo'llanilib, avtomatik ravishda ma'lumotlar bazasi hosil qilinadi. Ular asosida turli ijtimoiy-iqtisodiy voqea va hodisalarning monitoringini tashkil etish ishlari bajarilishi mumkin. GAT bu muayyan fan sohasida zarur bo'lgan chora tadbirlarni dalil bo'la oladigan ma'lumotlar banki bilan ta'minlaydigan, geografik jihatdan fazoviy-xududiy bog'langan ma'lumotlarni kiritish, ularni taxlil qilish va umumlashtirish hamda foydalanuvchini zarur axborotlar bilan ta'minlash tizimi, deb tushuniladi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari inson xo'jalik faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Bunday texnologiyalarni amaliyotga joriy qilmay turib ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlab bo'lmaydi. Har bir sohani kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish avvalo, inson mehnatini yengillashtiradi, boshqaruvni tez va barqaror bo'lishini ta'minlaydi, davlat hamda insonlar manfaatini himoyalaydi, rivojlanishni izchil borishida imkoniyatlar yaratadi. Buning mohiyatini chuqur his etgan holda geografik tadqiqotlar, jumladan, aholiga xizmat ko'rsatish kartalarini yaratishda ham ish jarayonini avtomatlashtirilgan tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. U turli axborotni raqamlangan shaklda berib, kerakli ma'lumotlarni yig'ish, o'rganish hamda tahlil qilish imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtira oladigan imkoniyatlarga egadir.

Shuni ta'kidlash joizki, GIS dasturlari yordamida kartografik proektsiyalarni yaratish bir muncha qulayliklarga ega. Bunda proektsiyani hosil qilish ishlari tez bajariladi, kiritilayotgan ma'lumotlarning aniqlik darajasi ancha yuqori bo'ladi, proektsiyada qo'pol xatoliklar kuzatilmaydi. Shu bilan birga tuzilayotgan proektsiyaga oid barcha ma'lumotlar dasturda saqlanib turadi, kerakli vaqtda unga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

II-BOB. NAMANGAN VILOYATIDA IJTIMOIIY SOHALARNI RIVOJLANISHI VA UNI KARTALASHTIRISH

2.1. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalariga oid jrayonlarni kartalashtirish imkoniyatlari

Aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasining metodologik asosi aholi geografiyasi tashkil etilishi bo'lib mazkur sohaning hududiy tashkil etilishi ham bevosita aholi joylashuvi xususiyatlari bilan belgilanadi. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini o'rganishda aholi soni, uning joylanishi, tabiiy va migratsiya harakati, demografik tarkibi hal etuvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, aholi manzilgohlari va transport infrastrukturasi rivojlanganligi, qishloq va shaharlarning o'zaro joylashuvi, zichligi ham inobatga olinishi kerak.

Ma'lumki tabiat, jamiyat doimo o'zgarishda, rivojlanishda ya'ni evolyutsion o'zgarishni boshidan kechirmoqda. Bu o'rinda tabiat, jamiyat munosabatlarini jadallashib borayotganligini alohida qayd qilish joiz. Dinamik kartalar bir tomondan kartalarning ilmiyligini oshirsa, ikkinchi tomondan geografik bashoratlash uchun keng imkoniyatlar tug'diradi. Masalan, kartalarda ko'p yillik ko'rsatkichlar va bugungi kun tafsilotlari turli qo'shimcha va geografik elementlar orqali ko'rsatib berilsa foydalanuvchida qator fikr va ma'ntiqiy mulohazalar uyg'otadi.

Geografik bashorat kelajakda geografiya fani uchun eng yetakchi ya'ni uning ijtimoiy nufuzini belgilaydigan ilmiy yo'nalish bo'lib, o'zgarishlarni aholi kartalari orqali bashoratlash katta ilmiy mulohazalar qilishga va ilmiy xulosalar chiqarishga zamin yaratadi.

Aholiga xizmat ko'rsatish geografiyasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Chunonchi, bu soha uchun aholining daromadi va xarajati har 100 ming kishiga tug'ri keladigan kasalliklar soni, nogironlik, tug'ilish, ulish va tabiiy ko'payish, kasalxona o'rinlari va ambulator-poliklinika hamda maktabgacha bo'lgan bolalar muassasalari bilan ta'minlanganligi, savdo shaxobchalarining maydoni va ularning ko'rsatkichlari va boshqalar tahlil etiladi. Bmroq mazkur

ko'rsatkichlar orqali aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi deb bo'lmaydi. Bunda tahliliy materiallar asosida xizmat ko'rsatish sohalarining kartalashtirish eng samarali vosita yoki real xolatni ko'rsatuvchi manba bo'lishi mumkin.

Albatta, statistik ma'lumotlar tahlili hamma vaqt ham real holatni aks ettirmaydi. Aksariyat hollarda sohaning hududiy muammolari qo'shimcha ravishda maxsus sotsial-demografik tadqiqotlar (anketa so'rovlari) o'tkazish orqali ham o'rganiladi. Mazkur xolatda, aholini tibbiyot sohalariga bo'lgan ehtiyojlarini kondirganlik darajasi, muassasalarning yetarli yoki yetarli emasligi, qulayligi va boshqa masalalarni aniqlash mumkin xolos.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalar kartalari bu tarmoqni geografiyasini o'rganishda ya'ni, shahar va qishloq joylarda (tumanlarda) joylashuvini o'rganishda qo'l keladi. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalar kartalari orqali birinchidan, qishloqlarda bunday tarmoqlarni tashkil xolatlarini; ikkinchidan: aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining ahvoli shahar joylarga ko'ra qishloqlarda qanday ekanligini ko'rish mumkin. Ana shu ob'ektiv holatlar qishloq joylarda aholiga xizmat ko'rsatish sohalar geografiyasini o'rganishda kartalashtirishni muhim qilib qo'yadi.

Shu bilan birga, qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish va ushbu ehtiyojlarga bo'lgan talabni qishloq joylarning o'zida qondirish orasida qanday jiddiy farqlar mavjudligini ko'rsatib beradi. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalar kartalari orqali qishloq aholisiga xizmat ko'rsatishning noyob va tanqis shakllari, uning yuqori bosqichlari tuman, va boshqa markazlardagi vaziyatini aks ettiradi. Kartografik taxlil orqali n hududning har xil darajadagi shaharlar — markaziy o'rinlar bilan ta'minlanganligi, ularning qishloq aholisi qatnovi uchun qulayligi, yo'l sharoitlari kabilar to'g'risida yetarli ma'lumotlar olish va kartalarda ko'rsatish imkoniyati mavjud. Ayni vaqtda qishloq aholisining barchasi uchun zarur bo'lgan kundalik ehtiyojlar mumkin qadar ular yashaydigan joylarning o'zida qondirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa qishloq joylarda aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining turi,

tarkibi va tizimiga bog'liq. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari kartalarida manashu jarayonlarni imkoniyat darajasida mukammalroq tasvirlash maqsadga muvofiq.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari kartalarida savdo, komunal, madaniy — maishiy, tibbiy, maorif, moliya va boshqalning hududiy, iqsodiy va boshqa ko'rsatkichlari kartografik tasvirlash usullari orqali yoritib berilishi lozim. Qolaversa, kartalarda aholiga xizmat ko'rsatish sohalari kartalarida sohalarni alohida xalq xo'jalik tarmog'i ekanligi ham saqlanib qolishi kerak. Xususan, savdo xo'jalikning muhim tarmog'i bo'lib, u o'zining joylanish xususiyatlariga ega. Savdo geografiyasida asosiy masala aholiga savdo xizmatini ko'rsatish bilan birga ushbu tarmoqning iqtisodiyoti ham nazarda tutiladi. SHuning uchun savdo xizmatini ko'rsatuvchi katalarda ushbu tarmoq, shaxobchalarining soni, maydoni, joylanishi, turi kabi jihatlarni ko'rsatib berilishi talab etiladi. Aholiga savdo xizmatini ko'rsatish kartalarida, yuqoridagilardan tashqari, ularning aholi joylashuvi, uning demografik tarkibiga mos kelishi, katnov uchun qulayligiga kabilarga e'tibor beriladi. Demak, bunday kartalardan birinchisida savdo tarmoq nuqtai nazardan tasvirlansa, ikkinchisida aholi va uning boshqa extijlarini aniqlovchi jarayonlar ko'rsatiladi. Taksonomik jihatdan savdo iqtisodiyot tarmog'i (tarmoq tizimi), savdo shaxobchalarining geografiyasi (hududiy tizim, sotsial— iqtisodiy geografiya), aholiga savdo xizmatini ko'rsatish— tarmoq tizimi, aholiga savdo xizmat ko'rsatish ob'ektining bo'lib xisoblanadi. SHu bois, uni atroflicha o'rganish va kartalashtirish maqsadidan kelib chiqqan holda tahlil etish va m'lumotlar bazasini shakllantirish talab etiladi.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish geografiyasini kartalashtirishda ushbu tarmoqqa tegishli muassasalarning (kasalxona, shifoxona, dorixona va h.k.) hududiy tarkibi va tizimi, aholi punktlarining turli ko'rsatkichlari va tiplariga nisbatan joylashuvini e'tiborga olinadi va ularning yetarli va qulaylik darajasini ko'rsatib beriladi.

Ayni paytda aholiga xizmat ko'rsatish sohalari va sotsial infrastruktura o'rtasida ham ma'lum farqlar mavjud. Bu yerda birinchi — tarmoq binobarin, u

moddiy yoki ma'naviy boylik yaratadi, ikkinchisi esa tarmoq emas, balki ushbu tarmoqning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan shart—sharoitlar majmuidir. Ataylik, tibbiyot sohasidagi bemorlarga xizmat ko'rsatish — bu ijtimoiy tarmoq, unta tegishli muassasalarning zamonaviy asbob — uskunalar bilan jihozlanganligi. tozaligi, dam olish va muolaja honalarining mavjuddligi kabi sharoitlar ushbu sohaning infrastrukturasidir. Shuning uchun bu boradagi kartalashtirish ishlarida mazkur tomonlarini e'tiborga olish lozim.

Ta'lim muassasalarini joylashuvini o'rganishda ham bu sohaga oid kartalarni ahamiyati o'ziga xos hususiyatta ega. Ta'lim soxalari xsusan maktablar joylashuviga oid kartalardi aholi va, ayniqsa, aholi punktlarining joylanishi, katta - kichikligi, ularning zichligi muhim ahamiyatga ega. Gap shundaki, qishloqlarning aholiylik (katta — kichiklik) darajasiga karab turli bosqich va yo'nalishlardagi maktablar joylashtiriladi, ba'zi hollarda maktablar «aglomeratsiya» shaklida, ya'ni o'zining filiallari bilan uyushtiriladi. Bunda kolledj va akademik litsey, markaziy va transport jihatidan qulayrok joylashgan qishloqda, to'qqiz yillik va boshlangich sinflar ham unga yaqin bo'lgan kichikrok qishloqlarda joylashtiriladi. Ta'lim katalarida ushbu xususiyatlar voqealarning tasvirlash usullarida e'tiborga olinadi.

O'rta umumiy ta'lim soxalarini kartalashtirishda maktablarni ham boshqa ob'ektlar kabi tabaqalash gan(klassifikatsiyalash) xolda, alohida tiplarga va o'kitiladigan tiliga karab ko'rsatish mumkin. Shuningdek, tuman yoki viloyatdagi umumta'lim maktablarining o'rtacha kattaligi, har bir qishloq kengashi va alohida qishloqlarga to'g'ri keladigan maktablar soni qo'shimcha elementlar sifatida berilishi kartani boyitadi.

Bu tipdagi mavzulikartalardan maktablarni hududiy tashkil etishda uning katta magistral yo'l yoqalarida, boshqa noqulay joylarda o'rtnashganligi to'g'risida ma'lumot olish mumkin. Shuning uchun amaliyotda foydalaniladigan kartalar tayyorlashda geografik fikrlash va unga metodologik yondashuv zarur.

Umumxizmat ko'rsatish sohalariga oid kartalashtirish jarayonida savdo, tibbiyot va maorif muassasalarini ham hududiy majmua shaklida tashkil etilganligi

aks etirilishi maqsadga muvofiq. Masalan, savdo tizimida ma'lum bir joyda turli xil dukonlarni mavjudligini, tibbiyotda shifoxona, kasalxona, dorixona va boshqa muassasalarni tashkil etilganligini yoki maorif sohasida maktablar bilan maktab yoshigacha bo'lgan bolalar bog'chasi va yaslilarni uyg'unlashtirgan majmuaviy holda hududiy tashkil qilinganligi saqlanishi kerak. Bunday birikmalar hududiy noishlab chiqarish majmualari shaklida kartalarda ko'rsatiladi. Xuddi shunday maishiy xizmat ko'rsatish sohasining hududiy tizimlari (majmualari) ham tasvirlanadi. Maishiy xizmat ko'rsatish sohasining qishloqlar markazida, shaharlarning turli dahalarda joylashganligi kuzatiladi.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish aholiga mo'ljallangan ekan, uni hududiy tashkil etish ham aholi joylashuvi, uning yosh-jins va boshqa demografik xususiyatlariga qarab amalga oshiriladi. Shuning uchun bu soxada tayyorlanadigan kartalarningg qatlamlarida shunga oid ma'lumotlarni ko'rsatib beriladi.

Mazuli kartalardan foydalanish ko'lami ortib borayotganligi kartogarfik manbalarni zamon talablariga mos holda ko'rsatib berish mas'uliyatini orttiradi. Qolaversa kartografik metod ya'ni turli voqealar tarqalishini va hududdagi tafsilotlarni o'rganish hamda ma'lumotga ega bo'lish fan-texnika hamda ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga kirib bormoqda. Ayniqsa global tizimlarni ahborot ko'rinishida anglash va o'zlashtirishda turli ko'rinishdagi kartalar asosiy vosita sifatida qaralmoqda. Ishning oldingi bandlarida ta'kidlanganidek, karta boshqa mavjud manbalardan ancha ko'rgazmali bo'lib, turli jarayonlarni joylashuvini, shakllanishini, hozirgi xolatini, rivojlanishining tabiiy va sotsial-iqtisodiy shart-sharoitlarini va istiqbolini yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek ularni o'ziga xos xarakterli jixatlarini, xususiyatlarini, o'zaro bog'liqliklari va aloqadorliklarini va uzoq muddatli rivojlanish tendentsiyalarini aniqlashga imkon beradi. Shuning uchun, aholiga xizmat ko'rsatish kartalarida kartalarining turlari va tiplarini soxa xususiyatidan kelib chiqib xilma-xil ko'rsatkichlar va birliklari orqali tasvirlash imkoniyati mavjud..

Xizmat ko'rsatish soxalari kartalarini yaratishda ayni vaqtdagi ma'lumotlari va zarur bo'ladi. Zero, bu sohaga oid jarayonlar jadal taraqqiy etadigan va tez o'zgaruvchan xisoblanadi. Ushbu ma'lumotlar turiga ularning joylashuvi, xizmat ko'rsatish soxalarining turlari va tiplari, statistik ma'lumotlari va boshqalar kiradi. Xizmat ko'rsatish soxalarining miqdoriy ko'rsatkichlari aloxida shkalalarga ajratilgan xolda turli kartografik taqqoslash usullari orqali tasvirlanadi. Bunda voqealar tarqalishi areal ko'rinishida, statistik raqamlarning mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarida diagramma va ranglar orqali hamda belgi va chiziqlar orqali tasvirlanishi mumkin. Soxaga oid kartalashtirish jarayonida bu soxani geografik joylashuv qonuniyatlari saqlanib qolishi kerak. Aks xolda kartadan foydalanganda voqea va xodisalarining joylashuvidan noto'g'ri xulosa chiqarishga olib keladi. Albatta, barcha aholi punktlari va ma'muriy tuzilmalarda xizmat ko'rsatish soxalari joylashuvi belgilangan talablar doirasida amalga oshirilgan deb bo'lmaydi. Bu eng avvalo mazkur soxaninig bozor iqtisodiyoti sharoitida tez o'zgaruvchan va moslashuvchanligiga bog'liq.

Kartografik asoslarni o'rganish, yaratish va ulardan foydalanish masalalari bilan shugullanuvchi fan, texnika va ishlab chiqarish sohasi hisoblanmish kartografiyaning shakllanishi va hozirgi kungacha rivojlanishi geografiya bilan chambarchas bog'liq. Qolaversa kartografiya bugungi shiddatli ilmiy texnika taraqqiyoti bilan hamohang rivojlanmoqda. Shu bois kartografiyaning o'zagini geografik kartografiya tashkil qiladi.

Ma'lumki kartani tayyorlashning ikki muhim tomoni mavjud, **Birinchisi**, kartaning texnik jihat. Bunga asosan kartografik bilim va tajriba bo'lishi shart. **Ikkinchisi**, kartaning mazmuni, ya'ni uning ilmiylik, ma'rifiy jihat. Bunga asosan ilmiy sohaning vakili, geografik bilim va tafakkur bo'lishi lozim. Ko'rinib turibdiki, kartaning mukammal bo'lishi uchun kartografik bilan geografik ko'nikmaning hamkorligi zarur. Aholiga xizmat ko'rsatish soxalarini kartalashtirishda ushbu talabdan kelib chiqib ijtimoiy soxalarni joylashtirish printsiplariga amal qilish lozim. O'z navbatida karta tayyorlovchi mazkur soha

bo'yicha chuqur ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bunday kartalarini chizish va takaomillashtirish uchun makondagi vaqt mobaynidagi o'zgarishlarni chuqur anglash talab etiladi. Shuningdek, karta tayyorlovchidan kartaga tushiriladigan bosh mavzu to'g'risida chuqur sohaviy bilim talab etiladi. Xususan xizmat ko'rsatish kartalarida sohaviy bilim ko'nikma geografik qonuniyatlarni, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar mohiyatini kartada mukammal tasvirlash va jarayonning ilmiy asosini saqlab ko'rsatish imkonini beradi. Aks holda voqeliklarni asl kelib chiqish qonuniyatlari buziladi va soxa joylashuvi va rivojlanishiga oid geografik vaziyat aniq tasvirlanmaydi.

Shuningdek, xizmat ko'rsatish kartalarini tuzishda ilmiy tamoyillarga, ya'ni barcha borliqni bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini tasvirda ko'rsatishga quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- aholiga xizmat ko'rsatish soxalari bilan bog'liq tafsilotlarni boshqa geografik voqea va xodisalar bilan bog'liqligini saqlash;
- geografiyaning bir butunligini ko'zlagan holda ish tutish;
- ya'ni aholi va aholi punktlarida tarmoqning shakllanishini aks ettirish;
- hududda ro'y berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni saqlab qolish;
- Sohaga oid jarayonlarni makon va zamondagi tavsilotlarini saqlash;
- statistik ma'lumotlarni kartografik tasvirlash usullari orqali ifodalashda karta mavzusi va voqelik xususiyatini inobatga olish va x.k.

Eng avvalo, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari kartalari turli soha vakillari tomonidan foydalanilganda tayanch vosita vazifasini bajarishi lozim. Qolaversa, shuni alohida ta'kidlash joizki bunday kartalarda zamonaviylik-dolzarblik tamoyili to'liq o'z aksini topishi kerak. Qayd qilish joizki, geografik kartografiyaning zamonaviyligi va istiqbolini kartalashtirishda zamonaviy texnik jihozlar va xorij yutuqlaridan foydalangan xolda olib borish maqsadga muvofiq.

2.2. Namangan viloyat ijtimoiy sohalarni rivojlanish xususiyatlari

Mintaqalar iqtisodiyotining hududiy majmua sifatida shakllanishi ularning ijtimoiy sohalari rivojlanishini ham talab qiladi. Chunki, ijtimoiy va iqtisodiy sohalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq, birining rivojlanishi ikkinchisi uchun tegishli imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratadi.

Namangan viloyati nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida 280 ming kishiga yaqin yoki jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning 32 foizi xizmat qiladi. Mintaqa YaHM da xizmatlarning hissasi 45 foiz atrofida. Ta'kidlash joizki, yalpi hududiy mahsulot tarkibida savdo va umumiy ovqatlanish hamda soliqlardan tashqari "boshqa" segmentlarning ulushi ancha yuqori.

Chakana savdoning 20,7, pullik xizmatlarning 38,1 foizini Namangan shahri bajaradi. Qishloq tumanlari orasida savdoda Uychi va Namangan, pullik xizmatlarda Chust va To'raqo'rg'on o'zlarining nisbatan yuqori salohiyati bilan biroz ajralib turadi. Bu borada past ko'rsatkichlar Mingbuloq va Uychi tumanlarida ham kuzatiladi, chakana savdoda esa Mingbuloq eng past mavqega ega. Aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi, Namangan shahrini hisobga olmaganda, aynan Chust tumanida yuqori; pullik xizmatlarda Chortoq va Namangan tumanlari oldinda.

Sog'liqni saqlash tizimida jami 113 ta tibbiyot muassasalari mavjud: har 10 ming kishiga bemorlar o'rinlari – 50,3 ni tashkil qiladi. Shu jumladan, Namangan shahrida 108,5, Pop tumanida 61,6, Kosonsoyda 43,5, Norin va Namangan tumanlarida esa pastroq. Shu o'rinda qayd etish joizki, ko'pgina holatlarda viloyat markazini qishloq tumanlari qatorida ko'rish haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Sababi, ushbu toifadagi shaharlar mintaqa miqyosidagi vazifalarni bajarishga ixtisoslashgan va aynan shuning uchun ham ular viloyat "poytaxti" hisoblanadi. Viloyat markazlarining sanoat, aholiga xizmat ko'rsatish, savdo kabi sohalarda eng katta ko'rsatkichga ega bo'lishi tabiiy. Binobarin, oddiy qishloq tumanlarining bu boradagi ulushi birgalikda qaralganda ular viloyat bosh shahri "soyasida" qolib

ketadi. Ayni vaqtda, odatda, viloyat markaziga tutash qishloq tumanlarida ijtimoiy sohalar rivojlanishi pastroq ko'rsatkichlarga ega. Gap shundaki, bunday hududlarning aholisi o'zlarining ijtimoiy ehtiyojlarini asosan viloyat ma'muriy markazlarida qondirishadi.

Viloyatda har 10 ming kishiga 21 nafar vrachlar va 108 ta o'rta meditsina xodimlari to'g'ri keladi. Qishloq vrachlik punktlari 244 ta yoki har bir qishloq tumaniga 22,2 tadan, qishloq aholi punktlariga nisbatan qaralganda esa 1,7 ta qishloqqa (qulayrog'i - 2 taga yaqin qishloq manzilgohlariga) bitta QVP xizmat qiladi.

Namanganda qadimdan xalq tabobati ham rivojlangan, bu yerda turli xil dorivor o'simliklar ko'p. Mintaqada rekreatsiya imkoniyatlari ham oz emas. Viloyat markazidan o'tgan magistral kanallar sohillarida tashkil etilgan oromgohlar, choyxona va oshxonalar ham kishilarga dam, rohat-farog'at bag'ishlaydi. Bir vaqtlar Namangan respublikamizda "gullar shahri" nomi bilan ma'lumu-mashhur bo'lgan.

Markazlashgan suv ta'minoti viloyat bo'yicha o'rtacha 74,8 %. Viloyat qishloq joylar orasida Mingbuloq, Namangan va Pop tumanlarida bu vaziyat birmuncha ijobiy. Shu bilan birga Kosonsoyning atigi 52,0 foiz, Norinning 56,1 foiz aholisi bunday imkoniyatlarga ega, xolos. Chust, Chortoq va Uchqo'rg'on tumanlarida ham mavjud holat yaxshilanishi talab etiladi.

Gaz bilan ta'minlanishi markazlashgan suv ta'minotiga qaraganda biroz yaxshiroq – 83,5 %. Namangan shahri aholisi 100 foiz ta'minlangan holda, yuqoriroq ko'rsatkichlar Mingbuloq, Pop va Chust tumanlarida ko'zga tashlanadi. Biroq, Norin tumani xonadonlarining 2/3 qismi tabiiy gaz bilan ta'minlangan, bu muammo Yangiqo'rg'on, Uchqo'rg'on tumanlari uchun ham xosdir.

Viloyatda xizmat ko'rsatishning sifati va qulayligini tubdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan keng ko'lamli tashkiliyhuquqiy chora-tadbirlar hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay

shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlamoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida, 2017 yilda bozor xizmatlari hajmi 5,0 % ga oshib, 5,1 trln.so'mgacha ko'paydi.

Aholi tomonidan har xil turdagi xizmat ko'rsatish turlariga bo'lgan talabning doimiy o'sishi va davlat tomonidan ushbu sohaga aloqador infratuzilmalarni (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, ta'lim va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan amaliy choralar xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlanishini ta'minlamoqda (1-jadval).

1-jadval

Namangan viloyaida bajarilgan xizmatlar turlari tarkibi (2017 y)

Xizmat turlari	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2016 yilga isbatan foizda</i>	<i>Ulushi</i>
Jami	5072,8	105,0	100,0
aloqa va axborotlashtirish xizmati	385,3	117,7	7,6
moliyaviy xizmatlar	408,7	122,1	8,1
transport xizmati	1114,9	102,7	22,0
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	1040,4	101,2	20,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	96,8	107,3	1,9
savdo xizmatlari	1831,8	100,1	36,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	163,5	105,6	3,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	189,3	110,0	3,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	94,4	110,6	1,9
ijara va prokat xizmatlari	105,5	100,9	2,1
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	169,1	103,6	3,3
boshqa shaxsiy xizmatlar	348,9	105,7	6,9
me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	36,2	104,8	0,7
boshqa turdagi xizmatlar	128,4	105,3	2,5

Jadval Namangan viloyati statistik boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Jadval ma'lumotlari shu ko'rsatmoqdaki, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari jadal rivojlanib, o'tgan 2016 yilga nisbatan 17,7 % ga oshgan. Telekommunikatsiya tarmoqlari, kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish milliy dasturlarining amalga oshirilishi, simsiz telefon aloqalarning o'sishiga, uyali aloqa abonentlari va Internet tarmog'iga jamoaviy ulanish joylari sonining ko'payishiga olib kelmoqda.

“2016-2020 yillarda xizmatlar soxasini rivojlantirish Dasturi”ni amalga oshirish natijasida 2017 yilda aloqa va axborotlashtirish xizmati 2016 yilga nisbatan 117,7 foizga oshgan va jami xizmatlar tarkibida 7,6 foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlar 122,1 foizga oshgan holda jami xizmat tarkibida 8,1 foizni tashkil etgan. Shuningdek transport va aloqa xizmati, savdo, ta'lim sohasidagi xizmatlar va boshqalarda ham oldingi yilga nisbatan o'sish kuzatiladi.

2017 yilda moliyaviy xizmatlar 22,1 % ga oshganligini kuzatish mumkin. Bunday o'sishga, tijorat banklarining, ularni kapitallashtirish va moliyaviy barqarorligini oshirishni o'z ichiga olgan moliyaviy faoliyatlarini takomillashtirish natijasida erishilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashning takomillashgan mexanizmi, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni kengaytirish, shuningdek yangi elektron to'lov texnologiyalarini joriy qilgan holda moliyaviy tashkilotlarning hududiy tarmoqlarini kengaytirish moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan boshqa omillar bo'ldi.

Sog'liqni saqlash hamda ta'lim soxasini isloh qilinishi sog'liqni saqlash (10,6 %) va ta'lim xizmatlari (10,0 %) oshish imkoniyatini bermoqda. Hozirgi vaqtda, xizmatlar ishlab chiqarish iste'molchilarning daromadlari darajasi, didi va nimani afzal ko'rishlariga qarab tabaqalanib bormoqda. Albatta bunda ko'rsatkchlarning o'sishi bilan birga, bozor xizmatlarining tarkibiy nisbatlari ham o'zgarishi yuzaga keladi.

Xizmatlar umumiy hajmida yangi bozor xizmatlarining ulushi ko'paydi. Xususan, 2017 yilda savdo xizmatlarining ulushi 36,1 % ni, transport

xizmatlarining ulushi 22,0 % ni, moliyaviy xizmatlar ulushi 8,1 % ni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 7,6 % ni, ta'lim sohasidagi xizmatlar 3,7 % ni, boshqa turdagi xizmatlar ulushi 21,0 % ni tashkil qildi⁹.

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Namangan shahriga 2386,7 mlrd.so'm (109,9 %) va Uychi tumaniga 244,4 mlrd.so'm (101,6 %) to'g'ri keldi (2-jadval).

2-jadval

Xizmat ko'rsatish sohalarining tumanlar kesimidagi ko'rsatkichlari (2017 yil)

<i>SHahar va tumanlar</i>	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd.so'm</i>	<i>2016 yilga nisbatan foizda</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi</i>	<i>ming so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan foizda</i>
Viloyat bo'yicha	5072,8	105,0	100	1895,9	103,1
Namangan sh.	2386,7	109,9	47,0	4012,0	108,1
Mingbuloq	185,9	100,8	3,7	1554,7	99,0
Kosonsoy	259,4	100,9	5,1	1311,4	99,0
Namangan	249,0	100,6	4,9	1472,2	98,2
Norin	202,0	101,0	4,0	1294,2	99,4
Pop	279,0	100,8	5,5	1331,0	99,2
To'raqo'rg'on	276,9	100,7	5,5	1293,4	98,7
Uychi	244,4	101,6	4,8	1212,9	99,5
Uchqo'rg'on	229,7	100,7	4,5	1402,5	99,0
Chortoq	226,6	101,1	4,5	1198,2	99,3
Chust	268,5	100,9	5,3	1061,3	99,2
Yangiqo'rg'on	264,6	101,3	5,2	1277,7	99,6

Jadval Namangan viloyati statistik boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

⁹ <http://www.namstat.uz>

Jadval ma'umotlaridan ko'rinib turibdiki, viloyat bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning 47,0 % dan ortig'i Namangan shahriga, To'raqo'rg'on tumani (5,6 %), Pop tumani (5,5 %), Chust tumani (5,3 %), Yangiqo'rg'on tumani (5,2 %) xissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Namangan shahriga 2386,7 mlrd.so'm (109,9 foiz) va Uychi tumaniga 244,4 mlrd.so'm (101,6 foiz)ga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahri (4012,0 ming so'm), Mingbulok tumani (1554,7 ming so'm) va Namangan tuman (1 472,2 ming so'm)larida kuzatiladi va mos holda 4012,0 ming so'm, 1554,7 ming so'm va 1 472,2 ming so'm ko'rsatkichlar qayd etiladi.

Viloyat bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning 47,0 foizdan ortig'i Namangan shahriga, To'raqo'rg'on tumani (5,6 foiz), Pop tumani (5,5%), Chust tumani (5,3 foiz), Yangiqo'rg'on tumani (5,2 foiz) hissasiga to'g'ri keladi. Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo (jami xizmatlarning 36,1 foizi, transport (22,0 foizi) xizmatlariga to'g'ri keladi.


Ma'lumki, uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadigan maktabgacha ta'lim bolalarning sog'lom o'sishi va tizimli o'qitishga tayyorlanishida muhim o'rin tutadi. Namangan viloyatida 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasi 2016 yilda shu yoshdagi aholining 23,4 foizini tashkil etdi. 2017 yil viloyatda maktabgacha ta'lim muassasalari soni 472 tani tashkil etib, shundan 234 tasi shahar, 238 tasi qishloq joylarda joylashgan. Ularda tarbiyalanayotgan 53375 nafar bolalardan 53,2 foizini o'g'il bolalar, 46,8 foizini qizlar tashkil etadi .

Viloyat bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan jami pedagog xodimlar soni 5741 nafarni tashkil etib, ulardan 15,5 foizi oily ma'lumotli, 84,0 foizi o'rta maxsus pedagogik ma'lumotlilardan iborat. Pedagog xodimlar umumiy sonidan 15 yil va undan ortiq ish stajiga ega bo'lganlar 29,1 foizni, shu jumladan qishloq joylarda 27,8 foizni tashkil etadi. 2016/2017 o'quv

yilida mavjud 687 ta umumiy o`rta ta`lim maktablarida jami 396,7 mingta o`quvchilar tahsil olgan bo`lsa, ulardan 147,8 ming nafari qishloq joylarda joylashgan 347 ta umumiy o`rta ta`lim maktablari hissasiga to`g`ri keladi (1-rasm).

1-rasm

Maktabgacha ta`lim muassasalari sonining qishloq va shahar joylar bo`yicha taqsimlanishi (2016 yil)



Manba: Namangan viloyati statistik boshqarmasi ma'lumotlari

Umumiy o`rta ta`lim maktablaridan 63,8 foizi ikki smenada, 0,1 foizi uch smenada mashg`ulot olib boradi. Ushbu ko`rsatkich hududlar bo`yicha tahlil qilinganda, To'raqo'rg'on (86,7%), Namangan (85,3%) tumanlari va Namangan (72,0%) shahrida yuqori foizni tashkil etmoqda. Viloyat bo`yicha umumiy o`rta ta`lim maktablaridagi o`quvchilarning 104,0 ming nafari ikkinchi va uchinchi smenalarda ta`lim olmoqda.

Umumiy oʻrta taʼlim – mustaqillik yillarida mamlakatimizda boʻlgani kabi viloyatimizda oʻrta umumiy taʼlim tizimida qator sifat oʻzgarishlar yuz berdi va jahon andozalari hamda milliy qadriyatlar negizida rivojlana boshladi.

2-rasm

Umumiy oʻrta taʼlimning asosiy koʻrsatkichlari (1991-2016 yillar)




Manba: Namangan viloyati statistik boshqarmasi maʼlumotlari

Taʼlim tizimining ahvoli haqida muhim maʼlumot beruvchi koʻrsatkichlardan biri bu taʼlim muassasalarida har bir oʻqituvchiga toʻgʻri keladigan oʻquvchilar sonidir.

U oʻquvchilar umumiy sonini oʻqituvchilar umumiy soniga boʻlish orqali aniqlanadi. 2016 yilda Namangan viloyatining umumtaʼlim maktablarida har bir oʻqituvchiga toʻgʻri keladigan oʻquvchilar soni 13 ga teng boʻldi (3-rasm).

Namangan viloyatida 2016/2017 oʻquv yili boshiga akademik litseylar soni 10 tani, kasb-hunar kollejlari soni 109 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, 2016 yil.



Manba: Namangan viloyati statistik boshqarmasi ma'lumotlari

Hozirda Namangan viloyatida faoliyat olib borayotgan kasb-hunar kollejlari asosan sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim, xizmat ko'rsatish, madaniyat va san'at kabi kasbiy yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlamoqda.

Kasb-hunar kollejlarining hududiy joylashuvi hamda ulardagi mutaxassisliklar Namangan viloyatining murakkab xo'jalik tuzilishi va hududlarning ixtisoslashuviga mos holda taqsimlangan. Ularni joylashtirishdagi asosiy omillar qatorida hududlarning xo'jalik ixtisoslashuvidan tashqari, aholi punktlari va ulardagi aholi soni, yosh tarkibi, aholi o'rtasida qadimdan rivojlanib kelgan hunarmandchilik va kasbiy faoliyat ko'nikmasi kabilar ham o'rin olgan.

2016/2017 o'quv yili boshida Namangan viloyati o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimining akademik litseylarida o'quvchilar soni 8995 nafar (shundan, 3533 nafari qiz), kasb-hunar kollejlari esa 104792 nafar (shundan, 50795 nafari qiz) ni tashkil etdi.

3-jadval

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining asosiy ko'rsatkichlari

	Akademik litseylar soni	O'quvchilar soni	O'qituvchilar soni	KXKlar soni	O'quvchilar soni	O'qituvchilar soni
2016/2017 o'quv yilida	10	9,0	0,7	109	104,8	8,3

Manba: Namangan viloyati statistik boshqarmasi ma'lumotlari

Tibbiyot va pedagogika kasb-hunar kollejlari Chust, Kosonsoy kabi yirik qishloq tumanlari markazlari va Namangan shahrida joylashgan.

Namangan viloyatida oliy ta'limning rivojlanishi mustaqillik bilan chambarchas bog'liq. Istiqbolning dastlabki yillarida boshlab iqtisodiyotning barcha sohalariga yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, aholining turmush farovonligini barqaror oshirib borish maqsadida viloyatda Namangan davlat universiteti, Namangan muhandislik-pedagogika (hozirgi Namangan muxandislik qurilish instituti) va Namangan muhandislik-iqtisodiyot institutlari (hozirgi Namangan muxandislik texnologiya instituti) tashkillandi. Ushbu oliy o'quv yurtlarida ikki bosqich (bakalavriat va magistratura) hamda aspiranturada mutaxassis kadrlar tayyorlashga kirishildi.

Namangan shahridagi oliy ta'lim muassasalari soni 2016/2017 o'quv yili boshida 3 tani tashkil etib, ularda o'qiyotgan talabalar soni 11495 nafarni tashkil qildi. 2015/2016-o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida har bir professor o'qituvchiga 17 nafar talaba to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016/2017-o'quv yili boshiga kelib 12 nafarni tashkil qildi (4-jadval).

Namangan viloyatida oliy ta'limning asosiy ko'rsatkichlari

O'quv yili	OTMlar soni	Talabalar soni (ming kishi)	Professor o'qituvchilar soni (ming kishi)	Har bir prof-o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni
2015/2016	3	10977	634	17
2016/2017	3	11495	932	12

Manba: Namangan viloyati statistik boshqarmasi ma'lumotlari

Bugungi kunda xizmatlar bozori haqli ravishda tadbirkorlikning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholi va turli muassasalarning borgan sari ko'proq qismi o'zining maishiy muammolarini o'zi hal qilishdan ko'ra malakali mutaxassislar yordamidan foydalanishni afzal bilmoqda. SHuning uchun, viloyatning turli joylarida har kuni ko'plab turdagi maishiy xizmat ko'rsatish sub'ektlarini tashkil etilmoqda.


Xulosa qilib aytganda iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasida ijtimoiy sohalar boshqa sektorlarning barqaror va bir maromda ishlashini ta'minlash bilan birgalikda aholining ijtimoiy-ma'naviy, ruhiy holati va turmush darajasi hamda uning sifat ko'rsatkichlarini ifodalovchi tuzilma bo'libgina qolmay, balki mamlakatlar va hududlar rivojlanishining buguni va istiqbolini ham belgilab beradi. Aynan ijtimoiy sektorning takomilligi mamlakat va uning alohida mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasini ko'rsatib, o'ziga xos vazifani o'taydi. Shu jihatdan ham bu soxa mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining markaziy bo'g'inini tashkil qiladi. Bugungi kunda dunyoning barcha iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan va bozor munosabatlari jadal rivojlanib borayotgan mamalakatlar iqtisodiy siyosatining mazmun-mohiyatiga aylandi.

2.3. Zamonaviy GAT texnologiyasi asosida aholiga xizmat ko'rsatish kartasini tuzish

Bugungi kunda zamonaviy kartalashtirish uchun ko'plab ma'lumotlar bazasini shakllantirish lozim. Bunda zamonaviy hisoblash-dasturlash vositalari orqali ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish ko'pgina qulayliklarni keltirib chiqaradi. Binobarin, zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslangan holda zamonaviy dasturlar asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlari to'grisida batafsil ma'lumot beruvchi avtomatlashgan sistemali kartalarni yaratish dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda. Xususan, turli sohalarga mansub mavzuli kartalarini yaratishda zamonaviy Geoaxborot tizimlariga (GAT) asoslangan "ArcGIS-10.2" dasturidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.


Bunda, mavzuli kartalari yaratish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'layig'ib, kompyuter bazasiga joylashtirilgandan so'ng, ularni har biri uchun alohida qatlam ("Layers", "слой")lar yaratib olinadi. Qatlamlar "ArcGIS"ni ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydigan yordamchi dasturi "ArcCatalog"da yaratiladi. Qatlamlarni yaratish jarayoni quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

1. "ArcCatalog" oynasi ochiladi va kompyuterning xotirasiga ixtiyoriy nom bilan papka yaratiladi (masalan, GIS yoki karta nomi) (4-Rasm).




4-Rasm

2. Yaratilgan papkani ustida sichqonchani o'ng tugmasini bosib, "New"-yangi buyrug'ni tanlab ochilgan yangi muloqot oynasidan "Personal Geodatabase" buyrug'i tanlanadi va shu tarzda yangi ma'lumotlar bazasi yaratiladi. Uni ham ixtiyoriy nom bilan nomlash mumkin (5-Rasm). Masalan, BAZA:



5-Rasm



6-Rasm


3. Yaratilgan ma'lumotlar bazasining ustida sichqonchani o'ng tugmasi bosiladi va chiqqan muloqot oynasidan "New", undan chiqqan oynadan esa "Feature Dataset..." buyrug'i tanlanadi (6-Rasm).

4. New Feature Dataset oynasi ochilgandan so'ng "Name" nom berish qatori chiqadi. Uning yordamida biz yaratmoqchi bo'lgan qatlamga nom beriladi va "Далее" tugmasini bosiladi (7-Rasm).

5. To'rtinchi amaldagi "Далее" tugmasi bosilganidan so'ng geografik koordinatalar sistemasini tanlash oynasi chiqadi. Undan Gauss_Kryugerning "Pulkovo 1942 GK Zone 12N" nomli geografik zonasi tanlanadi va "Далее" hamda "finish" tugmasi bosiladi. Agar kartaning geografik koordinatasi noto'g'ri tanlansa, kartasi yaratilayotgan hudud "ArcMap" oynasida o'z aksini topmaydi va boshqa hudud namoyon bo'ladi (8-Rasm).




7-Rasm




8-Rasm

6. Yaratilgan qatlam papkasining ustida sichqonchani o'ng tugmasini bosib




9-Rasm

“New Feature Class” buyrug’i tanlanadi (9-Rasm). Chiqqan yangi muloqot oynasida yaratilayotgan qatlamga voqelik ko’rsatib beriladigan usul yani uning turi (nuqtali (Point), chiziqli (Line), maydonli (Polygon)), tanlanadi va (Далее) tugmasi bosiladi (10-Rasm).




10-Rasm



11-rasm

7. Oltinchi bosqichdagi (Далее) tugmasi bosilganidan so'ng yaratilayotgan qatlamni atributlar oynasi ochiladi. Ochilgan atributlar oynasida ikkita ustun: 1. Field Name; 2. Data Type mavjud. Birinchi ustunga yaratilayotgan qatlamni nomi, tipi, maydoni, uzunligi va semantika kabilari yozilsa, ikkinchi ustunga esa birinchi ustunga yozilganlarni turlari tanlanadi va finish tugmasi bosiladi. Masalan, nomi→text, tip→text, maydoni→Double, uzunligi→Long Integer (11-rasm).




12-Rasm

Shu tarzda xaritani tuzish uchun kerak bo'ladigan qatlamlarni yaratiladi (12-Rasm). Kerakli qatlamlarni yaratib olinganidan so'ng "ArcCatalog"da qilinadigan ishlar bosqichi yakuniga yetadi. Keyingi qilinadigan ishlar esa

"ArcMap"da amalga oshiriladi, yani yaratilgan qatlamlar ustida amallar bajariladi. Jumladan, ma'lumotlar xaritada to'la o'z aksini topishi uchun saralanadi va guruhlashtiriladi. Bunda xaritada nuqtalar (точечный) yordamida ko'rsatish lozim bo'lgan obyektlar, chiziqlar (линейный) yordamida ko'rsatish lozim bo'lgan obyektlar va o'z navbatida maydonlar (полигональный) yordamida ko'rsatish lozim bo'lgan obyektlar aloxida guruhlarga jamlanadi.


Yaratilgan qatlamlarni hammasini oynaga chaqirib bo'lgandan so'ng. "Table Of Contents" oynachasida qatlamlarni hammasi namoyon bo'ladi. Xaritani chizishda birinchi o'rinda viloyat va tumanlar chegaralari tushuriladi va ularga shartli belgilar tanlanadi. Chizilgan har bir tumanlarni yaxshi ko'rinishi va kartani o'quvchanligini osonlashtirish maqsadida kartografik tasvirlash usullaridan sifatli rang usulini qo'llab alohida rang bilan belgilab olinadi (13-Rasm).

Tumanlarni tushurib olinganidan so'ng ularni markazlari tushiriladi va kerakli shartli belgi bilan belgilab olinadi. Viloyatlar markazini kattaroq doira bilan tumanlar markazini esa undan kichkinaroq doira bilan belgilab olib qatlamlarni ustida sichqonchani chap (Ok) tugmasi ikki marta tezlik bilan bosiladi va yangi "Layer Properties" (qatlam xususiyatlari) muloqot oynasi ochiladi (2-rasm). Ochilgan muloqot oynasidan "Symbology" (belgilar) bandini tanlab, ochilgan joydan "Value Field" (mintaqaning miqdor yoki qiymati) bandinidan tip tanlanadi.




Oynadagi “Add All Values” (hamma miqdor yoki qiymatni qo’shish) buyrug’ini bosib undan so’ng “Add Values...” buyrug’i bosiladi, chiqqan yangi muloqot oynasiga xaritada ko’rinishi kerak bo’lgan nomlarni yozib “Ok” tugmasi bosiladi (14-rasm).

Bundan tashqari obyektlarning nomlari, umumiy malumotlari, manbalari, ko'rgazmalar, mavjud malumotlarni saralash, yozuvlar bilan ishlash, tanlangan obyektlarni bir-biri bilan biriktirish, hamda ularni o'ziga xos kartografik usullar bilan xaritada tasvirlash ishlari ham shu oyna yordamida bajariladi.




Viloyat va tuman chegaralari, ularning markazlari xaritaga tushurib bo'linganidan so'ng endigi ish asosiy avtomobil yo'llari va temir yo'llarini hamda daryo, ko'l, suv omborlar va kanallarni tushurish bo'ladi. Bunda ma'lumotlar bazasidagi ularni qatlamlarini chaqirib olib ular ustida yuqoridagilar singari amallar bajariladi. Avtomobil va temir yo'llarni hamda gidrografik obyektlar (daryo, kanallar)ni chiziqli belgilar usulini qo'llash orqali va dastur shartli belgilaridan foydalanilgan holda shartli belgilari tanlab olinadi, so'ng "Ok" tugmasi bosiladi. Gidrografik obyektlardan suv omborlarini esa maydonli (poligonalniy) belgilar usuli yordamida aks ettiriladi (15-Rasm).

Xaritada asosiy avtomobil yo'llari ya'ni shahar va tumanlar markazlarini, sanoat markazlarini tutashtiruvchi, Respublika ahamiyatidagi yo'llar sariq rangli chiziqlarda, nisbatan kichkina bo'lgan aholi punktlarini tutashtiruvchi va tumanlar ahamiyatidagi yo'llarni esa malla rangli chiziqlarda, daryolar qalinroq to'q ko'k rangda kanal va soylar esa daryolarga nisbatan ingichkaroq to'q ko'k rangda berilgan. Temir yo'llarni oq-qora rangli uzun-uzun chiziqlar bilan berilgan. Viloyatdagi suv omborlarni esa ko'k rangda tasvirlangan.




15-rasm

Shuningdek, viloyat ja'mi aholi sonining tumanlar kesimidagi tarqalishini xaritaga tushurishda shu nomdagi jadvalni (1-ilova) Excel dasturi yordamida ochib olib, shu nomdagi qatlamni ustida sichqonchani o'ng tugmasini bosib chiqqan muloqot oynasidan "Open Attribute Table" (yordamchi stolni ochish) buyrug'ini tanlanadi. Ochilgan atribut oynasini Excel dasturidagi jadvalga nuqta verguligacha moslab olinadi. So'ng atributlar oynasi yopilib, shu nomdagi qatlamni ustida sichqonchani o'ng tugmasi bosiladi, chiqqan muloqot oynasidan "Joins and Relates" (qo'shish va bog'lash) buyrug'i tanlanadi va jadval qatlamga bog'lanadi. Jadval qatlamga bog'laganidan so'ng qatlamni ustida sichqonchani chap tugmasini ketma-ket ikki marta bosib, ochilgan "Layer Properties" (qatlam xususiyatlari) oynasini "Symbology" (belgilar) bandida unga mos kartografik tasvirlash usuli tanlanadi. Bu jadvalni xaritada kartografik tasvirlash usullardan biri belgilar usuli yordamida tasvirlandi. Bunda jadvaldagi ma'lumotlarni pog'onagalarga ya'ni shkalalarga ajratib olinib, aholisi 115-158 mingtagach bo'lgan tumanlar bitta pog'onada, 158-205 mingtagacha bo'lgan tumanlar bitta pog'onada, 205-244 mingtagacha bo'lgan tumanlar bitta pog'onada, 244-489 mingtagacha bo'lgan tumanlar esa alohida pog'onalarga ajratib olinib tasvirlandi (16-rasm).



16-rasm


Viloyatdagi shahar va qishloq aholisi tumanlar kesimidagi ko'rsatkichlarini xaritada tasvirlash uchun ham yuqoridagi amallar bajariladi. Uni xaritada kartografik tasvirlash usullardan biri doiraviy diagramma yordamida tasvirlandi. Dasturni imkoniyatlarini keng qo'llagan holda xaritada har bir diagrammalar ustiga uning raqamdagi ma'lumotlarini aks ettirildi. Bu xaritani o'quvchanligini osonlashtirib ular o'rtasidagi farqni yaqqol ko'rsatishga xizmat qiladi. Bundan tashqari xaritada asosiy shaharni ham aks ettirildi (17-rasm).



17-rasm

Viloyatdagi xizmat ko'rsatish sohalarining tumanlar kesimidagi ko'rsatkichlarini aholi jon boshiga ming so'mda (2017 y.) to'g'ri kelishini xaritada tasvirlash uchun ham yuqoridagi amallar bajariladi. Ya'ni shu nomdagi Excel jadvalni qatlamning atributlariga joylanadi va jadval bilan qatlamni bog'lanadi. Ma'lumotni yaqqol ko'rsatish va foydalanuvchiga tushunarlim bo'lishi uchun uni kartografik tasvirlash usullaridan biri katagrammalar usuli yordamida tasvirlandi. Kartogramma usuli statistik usul bo'lgani va ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy xaritalarni tuzishda qo'llanilishi uchun shu usul tanlandi.

Xaritada xizmat ko'rsatish sohalarining tumanlar kesimidagi ko'rsatkichlarini aholi jon boshiga ming so'mda (2017 y.) to'g'ri kelishini miqdor ko'rsatkichlarini och yoki to'q holatda turli ranglar orqali ko'rsatildi. Bunda miqdor ko'rsatkichlar 6 shkalaga ajratib olindi va har biri alohida ranglarda aks ettirildi. Bunda, 1061,300 so'mgacha bo'lgan tumanlar alohida rangda, 1061,301 - 1212,900 so'mgacha bo'lgan tumanlar alohida rangda, 1212,901 - 1331,000 so'mgacha bo'lgan tumanlar alohida rangda, 1331,001 - 1472,200 so'mgacha bo'lgan tumanlar alohida rangda, 1472,201 - 1554,700 so'migacha bo'lgan tumanlar alohida rangda, 1554,701 - 4012,000 so'mgacha bo'lgan tumanlar ham alohida rangda tasvirlandi (18-rasm).



18-rasm

Tumanlar maydonining turlicha bo'lgani va ulardagi aholi sonining kam yoki ko'p bo'lgani bu ko'rsatkich ba'zilarida yuqori va aksincha ba'zilarida maydonining kata bo'lgani hisobiga past miqdorlarni tashkil etdi.

Xaritadan ko'rinib turibdiki **xizmat ko'rsatish sohalarining tumanlar kesimidagi ko'rsatkichlarini aholi jon boshiga ming so'mda (2017 y.) to'g'ri**

kelishini tahlil qilinganida Chust, Chortoq va Uychi tumlarida bu ko'rsatkich past darajada ekanligini ko'rish mumkin. Lekin, umumiy aholi soni va maydonini tahlil qilsak bu tumanlarni bir – biridan katta farq qilishini kuzatish mumkin. Masalan, 0,94 kv. km. maydon va 244 ming kishi aholiga ega Chust tumani 0,38 kv. km. maydon va 184 ming kishi aholiga ega Chortoq tumani bilan bitta shkalada turibdi.


Pop, Kosonsoy, Yangiqo'g'on va To'raq'org'on tumanlarida bu ko'rsatkich o'rtacha darajadiligini ko'rish mumkin. Lekin yuqoridagi singari bu tumanlarning ham aholi soni va maydoni o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Jumladan, 2,91 kv. km. maydon va 202 ming kishi aholiga ega bo'lgan Pop tumani 0,52 kv. km. maydon va 190 ming kishi aholiga ega Kosonsoy tumani va 0,21 kv. km. maydon va 151 ming kishi aholiga ega Norin tumani hamda 0,28 kv. km. maydon va 205 ming kishi aholiga ega To'raqo'rg'on tumanlari bilan bitta shkalada turibdi.

Bu boradagi yuqori ko'rsatkichlarni Mingbuloq, Namangan va Uchqo'rg'on tumanlarida ko'rish mumkin. Lekin, bu tumanlarda ham o'rtasida ham aholi soni va maydoni o'rtasida sezilarli farqlar mavjud.

Eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahriga tegishli bo'lib, uning yuqori bo'lishiga aholi sonining ko'pligi (489 ming kishi) va maydonining kichikligi (0,08) ta'sir ko'rsatgan.

Shu tarzda qolgan jadvallarni ham qatlamlar bilan bog'lab chiqib, ularga muvofiq kartografik tasvirlash usullari va shartli belgilar tanlanib, xaritaga tushuriladi. Bundan tashqari viloyatda bajarilgan xizmatlar turlari tarkibi (2017 y.) xar biri alohida diagrammalar bilan xaritaga yordamchi element sifatida ilova qilindi. Shu amallarni hammasini yuqoridagi ketmaketlikda bajarib bo'lgandan so'ng Namangan viloyati xizmat ko'rsatish xaritasi tayyor bo'ladi (19-rasm).

Namangan viloyati aholiga xizmat ko'rsatish kartasi



XULOSA

Xizmat ko'rsatish soxalarini geografik tadqiq qilishda mavzuli kartalar orqali ularning turli ko'rsatkichlarini o'rganish yozma manbalarga nisbatan bir muncha qulay va samarali sanaladi. Ular yordamida voqea va hodisalarning makon va zamonda tarqalishi ko'rgazmali tarzda ifodalanadi, tarmoqlarining hududiy joylashuvi va o'ziga xos xususiyatlari aholi joylashuvi bilan birga o'zaro taqqoslanadi, ilmiy taxdil qilish imkoni yaratiladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida aholiga xizmat ko'rsatish soxalarini kartalashtirishning nazariy va metodologik masalalari taxlil qilinib, soxa joylashuvini kartografik jihatdan o'rganish, xizmat ko'rsatish soxasi mavzuli kartalari yaratish uslubiyoti va printsiplari atroflicha o'rganildi. Mavzuli kartalar yaratishda GAT asosida kartalashtirish masalalari o'rganilib, mavzuli va majmual kartalari tizimi ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur bitiruv malakaviy ishining asosiy xulosalari va takliflari quyidagilardan iborat:

- Hududga taalluqli aholi kartalari tizimini yaratishda mavzu to'raligini ta'minlash, kartaga tushirilayotgan sohaning hududiy tarkibi, sohani kartalashgirishtga qo'yiladigan asosiy talablar, chunonchi, kartalarning masshtabi, mazmuni, kartografik tasvirlash usullari, shuningdek, kartalarni yaratishda yangi texnologiyalardan foydalanish katta afzalliklarga ega;

- Namangan viloyati nafaqat tabiiy va iqtisodiy geografik, balki ijtimoiy geografik xususiyatlariga ko'ra ham respublikamizning boshqa mintaqalaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

- Bu mintaqada xizmat ko'rsatish soxalari aholisining tabiiy va mehanik xarakatlariga, urbanizatsiyasining rivojlanishiga, aholisining daryo xavzalarida joylashuviga, zichligiga, mehnat resurslarining ko'rsatkichlari va boshqalariga mos holda o'ududiy tashkil etilgan;

- Mintaqa xizmat ko'rsatish soxalarining o'ziga xosligini tadqiq etgan holda, statistik ma'lumotlar asosida, Namangan viloyati xizmatlar soxasiga oid

mavzuli karta tuzildi;

Yuqoridagilardan kelib chiqib yaqin kelajakda aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy joylashuvini ko'rsatuvchi (savdo, ta'lim, tibbiyot, turizm va boshqalar.), tarmoq tarkibini ifodalovchi kartalar yaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasi. www.gazeta.uz/oz/2016/12/07/speech/
3. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. –Т.; Маънавият, 2009.- 176 б.
4. Абдуллаев О. Фарғона водийси: Ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнлари. -Наманган, 2000, -290 б.
5. Абдуллаев.О. Наманган вилояти (табиати, аҳолиси, хўжалиги). - Наманган, Наманган нашриёти, 1995, - 146 б.
6. Абдурахмонов Х.А. Географияда географик инфор­мацион системалардан фойдаланиш // География таълими ва услубининг долзарб муаммолари. Республика илмий-услубий анжумани материаллари. Қўқон. 2008. 28-30 б.
7. Авезов С., Курбониезов Р., Эшчанов Р., Эгамбердиев А. Хоразм вилоятини ўқув атласини яратиш тўғрисида//Узбекистон География жамияти ахбороти. - Т., 1997. 18-жилд. - Б.161-164.
8. Кошкарев А. В., Тикунов В. С. Геоинформатика. - М.: Картгеоцентр - Геодезиздат, 1993. -213 с.
9. Кузибаев М., Алмазова Е. А., Разикова З.Э. ГИС – технология для устойчивого развития // Геодезия, картография, кадастр соҳасини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари.-Самарқанд, 2014. 20-22 б
10. Mirzaliev T., Musaev I.M., Safarov E.Yu. Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2009. 142 b

11. Мирзаахмедов Х., Акабоев И. Мавзули карталар тузишда геоахборот тизимини қўллаш афзалликлари // Фарғона водийси географлари уюшмасининг илмий-амалий семинари материаллари. -Наманган, 2015, 165-167 б.
12. Мирзаахмедов Х., Акабоев И. “ARCGIS” dasturi yordamida sanoat kartasi yaratish jarayonining auzim jihatlarini // Фарғона водийси ресурс салоҳиятидан фойдаланишнинг геоэкологик асослари мавзусидаги Фарғона водийси географларининг илмий-амалий семинари материаллари. -Фарғона, 2017, 133-138 б.
13. Мирзаахмедов Х., Акабоев И. Arcgis 10.2” dasturida mavzuli kartalar qatlamlarini (Layers) yaratish. “Географиянинг минтақавий муаммолари” мавзусида республика илмий-амалий конференция материаллари. -Жиззах, 2017, 266-269 б.
14. Мирзалиев Т. Картография. –Т.: “Фан”, 2004. 200 б.
15. Мирзалиев Т., Қорабоев Ж. Карталарни лойиҳалаш ва тузиш. – Т.: “Талқин”, 2007. 140 б.
16. Қаямов А., Назарова Х., Эгамбердиев Ф., Якубов Ў. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. – Т.: ЎЗМУ, 2004. – 115 б.
17. Раҳмонов Д.Н., Сафаров Э.Ю. ГИС технологиялари асосида картографик проекцияларни тузиш ҳақида // Геодезия, картография, кадастр соҳасини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари.-Самарқанд, 2014. 26-28 б.
18. Robinson A. H., Morrison J. L., Muehrke P. C., Kimerling A. J., Guphill S. C. Elements of Cartography. -6 ed. John Wiley & Sons, INC., 1995.
19. Сафаров Э.Ю., Эгамбердиев А. Картографиянинг назарий концепциялари. Ўзбекистон География Жамиятининг Ахборотномаси.- Т., 36-жилд 2010, 195-197 б.
20. Сафаров Э.Ю., Мусаев И.М., Абдурахимов Х.А. Геоахборот тизими ва технологиялари. Дарслик. Т.: 2012, -148 б.

21. Солиев А. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари. – Т.: Университет, 2007.-108 б.
22. Солиев А, Назаров М, Қурбонов Ш. Ўзбекистон худудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. Т.: 2011, -127 б.
23. Солиев А. ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт.- Т.: ЎЗМУ, 2003. – 304 б.
24. Солиев А.А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёти: танлаган асарлар – Т.: Камалак. 2013. -184 б.
25. Солиев А.С., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари. Т.: – 2009. – 212 б.
26. Солиев А.С., Ўзбекистон географияси. -Т.: - 2014. -404 б.
- 27.Эгамбердиев А., Авезов С.А. Ўқув ўлкашунослик атласлари: тажриба ва муаммолар//Ўзбекистон География жамияти IV съезди материаллари. - Т., 1995. II қисм.-Б. 260 - 261.
28. Ўзбекистон географик атласи. Т.: - 1999. -56 б.
29. Ўзбекистон аҳолисининг миллий таркиби картаси. Т.: -1992 й

Internet manbalari

1. <http://www.gazeta.uz> - O`zMAA internet-OAV.
2. <http://www.ziynet.uz> – O`zbekiston Respublikasi ta'lim portali
1. <http://www.namstat.uz>- Namangan viloyati statistika boshqarmasi sayti
3. <http://bankreferatov.ru> –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o`zida qamrab olgan veb-sahifa.
4. <http://www.lex.uz> - O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi axborot bilan ta'minlash markazi.
5. <http://www.press-service.uz> - O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati
6. <http://www.mineconomy.uz> – O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi.
7. <http://www.stat.uz> – O`zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi.